1999-yili Shofirkon O‘IChK xo‘jalik hisobida mustaqil faoliyat yurituvchi tashkilotga aylangan. Korxonaga 2019-yilda 6 dona adres matosi, to‘qiyidigan dastgohlar, (9600000 so‘m) 3 dona AT 100 adres to‘qish avtomat dastgohlar (18000000 so‘m) ishlab chiqarishga jalb etilgan. Bino qayta kapital ta‘mirlangan. 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra Buxoro KOJ O‘IChK larida jami, 159 nafar, shundan 99 nafar ko‘zi ojiz nogiron ishchi-xodim mehnat qilgan [14]. Viloyatda 5 ta O‘zKOJ MB ga qarashli, 2 ta VB qoshidagi O‘IChK MCh lar ko‘rishda nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligini ta‘minlash maqsadida faoliyat yuritib kelmoqda. Yalpi daromad 2014-2018 yillarda 3 miliard 512 milion 631 ming 900 so‘mdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 2019-2023 yillarda bu ko‘rsatkich 14 miliard 999 milion 634 ming so‘mmi tashkil qildi. Sof foyda 2014-2018 yillarda 1 miliard 450 milion 515 ming 400 so‘mdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 2019-2023 yillarda 9 miliard 338 milion 344 ming so‘mmi tashkil qilgan [15].

Xuddi shu jarayonni Navoiy viloyatida O‘IChK faoliyatida ham kuzatish mumkin. 1961-yildan tashil etilgan Navoiy O‘IChK 2020-yilga kelib, yangi qurilgan binoda yangicha mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Tadbirkor K.Elmurodov boshchi-ligida korxona sezilarli yutuqlarga

erishmoqda. Hozirda korxonada 42 nafar kishi mehnat qilib, ularning 28 nafari ko'rish bo'yicha nogironlardir. 2001-yilda Qiziltepa O'IChK tashkil etilib, T.Sharipov rahbarligida 20 nafar ko'zi ojizlar ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullana boshladilar [16].

Jamiyattdagi ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar tomonidan 2022-yil davomida quyidagi 26 xildan ziyyod mahsulotlar ishlab chiqarilgan:

	Maxsulot nomi	O'chov birligi	miqdori	Summasi	Ishlab chiqarish hajmidagi ulushi % da
1	Tikuv mahsulotlari	Ming. so'm	-	58 187 442.5	45,10%
2	Bosmaxona mahsulotlari	Ming. so'm	-	24 393 246.5	18,90%
3	Mebel mahsulotlari	Ming. so'm	-	14 309 742.8	11,09%
4	Plastmassa mahsulotlari	Ming. so'm	-	8 389 989.0	6,50%
5	Matras	dona	43319	5 163 196.2	4,00%
6	Paxta	tn	411.7	4 090 661.9	3,17%
7	ko'rpa	dona	26275	2814054.5	2,18%
8	Karton mahsulotlari	Ming. so'm	-	2 375 098.6	1,84%
9	Yostiq	Dona	16378	650 463.5	0,50%
10	bo'z	P.metr	67453	436 323.3	0,34%
11	avtoypog'ich	dona	16	2 400.0	0,00%
12	Noto'qima mato	P.m.	36000	114 000.0	0,09%
13	Ip kalava	kg	2138	42 760.0	0,03%
14	Qishloq xo'jalik va sut go'sht mahsulotlari	Ming. so'm	-	605 163.6	0,46%
15	Polietylken paket	Ming. so'm	-	46938.0	0,04%
16	Shlaka blok	Ming. so'm	-	281 600.0	0,22%
17	Qolipli non	Ming. so'm	-	120 218.0	0,09%
18	Shaxmat shashka doskasi	Ming. so'm	-	81040.0	0,06%
19	Jemper	Ming. so'm	-	390 994.9	0,30%
20	skameyka	Ming. so'm	-	254 366.9	0,20%
21	Maktab bo'ri (mel)	Ming. so'm	-	80 000.0	0,06%
22	Madanli suv	Ming. so'm	-	3 109 005.1	2,41%
23	makaron	Ming. so'm	-	51 000.0	0,04%
24	tibbiyot chiqindilarini qayta ishslash	Ming. so'm	-	605 829.0	0,47%
25	PVX Kromka mahsuloti	Ming. so'm	-	1 265 350.0	0,98%
26	Xizmat ko'rsatish	Ming. so'm	-	1170275,85	0,91%
	Umumiy jami	-	-	129 031 160,15	100,0%

Ta'kidlash joizki, uzoq yillardan buyon jamiyat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilish kelgangan mahsulotlarning katta hajmini (2018-yilda 54,88 foizni, 2019- yilda 45,69 foizni, 2020 yilda 42,86 foiz) paxta maxsulotlari egallab kelgan. Hatto, 2023-yilda ham bu ko'rsatgich 44,06 foizni tashkil etgan. 2023-yildan boshlab jamiyat tizimida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ro'yhati yana ham kengayganligini guvohi bo'lamiz. Bular: mebel jihozlar, poletilen paket, temir o'rindiqlar (skameyka), maktab meli (bo'ri), makaron, tibbiyot chiqindilarini qayta ishslash, kabi yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tilganligi va xizmat ko'rsatishning yangi turlari yo'nga qo'yilganligidir. 2023-yil davomida 332 nafar ko'zi ojiz nogironlar ishga joylashtirilgan. 117 nafari O'zKOJ korxonalariga, 59 nafari esa jamiyat tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlarga ishga joylashtirilgan [17].

Xulosa va takliflar. Demak, so'nggi yilda mamlakatimizda yashovchi nogironligi bor fuqarolarni deyarli aksariyat qismi jamiyatlar safida birlashgan va ular inklyuziv jamiyat barpo etishning oldingi safida bormoqda desak, xato bo'lgaydi. Eski

binolarning ta'mirlanishi yoki qayta qurilishi va uning yangi zamonaliviy texnologiyar asosida mahsulot ishlab chirarilishga asoslanishi, korxonalarni sifatli maxsulot ishlab chiqarishini ta'minlamoqda. Binobarin, korxonalarga xorijiy investitsiyalarini olib kirish, yoki qo'shma korxonalar tashkil etish, xorijiy tajribalarni qo'llash lobiy natija beradi deb o'yaymiz. Chunki zamonaliviy asbob-uskunalarini olib kirish yoki qo'llash maxsulot ishlab chiqorishsifatini yaxshilaydi va ish bilan bandlik muammosini hal qiladi. Bu jarayon albatta davlatimizning nogironlik jamiyatlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashiga bog'liq. Ayni paytda arxiv ma'lumotlari kompyutor va zamonaliviy asbob-uskunalar, ilg'or loyihalarini ishlab chiqorishga joriy etish sifatli mahsulotlarni tayyorlash va sotishga sabab bo'lganligini tasdiqlamoqda. Lekin bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilsa maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, endi galidagi vazifa tizimda ular to'g'risida zaruriy yagona elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, jamiyatarning ishlab chiqorish korxonalarini moddiy texnika bazasini mustahkamlashni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR

- O'zRes Nogironlar jamiyatasi Asossatsiyasi arxivi /Hisobotlar. 2024-yil.
- MDA F. M-49, op1, ish-281, 8-11 varaq.
- MDA F. N P- 2370, op-1, ish-37951, 2-3 varaq.
- Tarix qatidan qatralar. (Muhammadijal Rahmatov) "Buxoro nashriyoti". Buxoro., 2022. 5-6 betlar.
- Navoiy viloyati KO'J joriy arxivi./Hisobotlar. 2020-yil.
- O'zRes Nogironlar Asossiyatsiyasi joriy arxivi//Asossiyatsiya boshqarmasining V Plenumiga hisoboti /2023-yil.
- O'zRes.Samarqand viloyati nogironlar jamiyat bo'limi// Hisobotlar. 2024- yil.
- O'zRes.Buxoro viloyati nogironlar jamiyat bo'limi// Hisobotlar.2024-yil.
- O'zRes.Navoii viloyati nogironlar jamiyat bo'limi// Hisobotlar.2024-yil.
- MDA F.2536, op-1, ish-28, 2-5- varaq.
- MDA F.M-49, op-1, ish-281, 17- varaq.
- MDA F.2370 op-1, ish-3656, 9- varaq.
- MDA F.2370 op-1, ish-3656, 4- varaq.
- Tarix qatidan qatralar. (Muhammadijal Rahmatov) "Buxoro nashriyoti". Buxoro.2022.4-26-betlar.
- O'zRes.Buxoro viloyati KOJ arxivi//Hisobotlar. 2024-yil.
- MDA F.M-49, op1, ish-282, 18- varaq.
- O'zRes Nogironlar Asossiyatsiyasi joriy arxivi/ Asossiyatsiya boshqarmasining V Plenumiga hisoboti// 2023-yil.
- Tarix qatidan.qatralar. "Buxoro nashriyoti". Buxoro.2022. 4-5-betlar.



Сухробджон ВАХИДОВ,
Докторант Научно-исследовательского института развития туризма
E-mail: vaxidovsuxrobjon@gmail.com
Orcid: 0009-0004-7362-3740

Под рецензией Ш.Мухамедов д.и.н, доцент Филиал Российского государственного университета нефти и газа (Ниу) имени И.М.Губкина в Ташкенте

МЕСТО ПАЛОМНИЧЕСТВ В КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ МЕСТНОГО НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация

В статье признается, что частое посещение святынь, кладбищ и святынь, имеющих непосредственное отношение к жизни людей, является неотъемлемой частью жизни. За годы независимости многие мавзолеи ученых и добродетелей в нашей стране были благоустроены и превращены в мирные и красивые обители.

Ключевые слова: Паломничество, религия ислам, святые места, манеры паломничества, обычаи, традиции, шариатские святыни, религиозные ценности, могильное паломничество, мавзолеи, архитектурные сооружения.

MAHALLIY AHOLI MADANIY HAYOTIDA ZIYORATGOHLARNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada bevosita insonlar hayotiga bog'liq bo'lgan ziyoratgohlar, o'tganlarni ziyorat qilish, qabristonlar, qadamjolarga tez-tez borib turish hayotning ajralmas qismi ekanligini e'tirof etiladi. Mustaqillik yillarda yurtimizda ko'plab olimu fozillar maqbaralari obod etilib, so'lim va serfayz maskanlarga aylantirildi.

Kalit so'zlar: Ziyoratgoh, islam dini, muqaddas qadamjolar, ziyorat odoblari, urf-odatlар, an'analar, shar'iy ziyoratgohlar, diniy qadriyatlar, qabr ziyorati, maqbaralar, me'moriy inshootlar

LOCAL RESIDENTS OF SHRINES CULTURAL ROLE IN LIFE

Annotatsiya

The article acknowledges that frequent visits to shrines, cemeteries, and shrines, which are directly related to people's lives, are an integral part of life. During the ears of independence, many mausoleums of scientists and virtues in our country were improved and turned into peaceful and beautiful abodes.

Key words: Pilgrimage, Islam religion, holy places, pilgrimage manners, customs, traditions, Shariah shrines, religious values, grave pilgrimage, mausoleums, architectural structures.

Введение. Посещение святых мест побуждало людей держаться подальше от плохих путей, быть честными и преданными, совершать добрые дела, такие как оставлять себе только добро. Изучение святынь в то же время тесно помогает в изучении истории архитектурных памятников. В то же время священные святыни, вобравшие в себя многовековые верования, обычаи и традиции нашего народа, а также редкие образцы материальной культуры, воплощают в себе вековые и традиционные аспекты архитектуры и служат прочной основой для архитектуры последующих эпох. Следовательно, святыни воплощают в себе как подлинные образцы наших вековых ценностей, так и традиционные национальные обычаи.

Обзор литературы. У народов Средней Азии с древних времен большинство важнейших событий в жизни людей признавалось плодом паломничества к святым местам, а формы верований, связанные с личными проблемами в бытовой жизни, складывались веками, влияя на другие важные аспекты ментального образа, в том числе на формирование этикета почтания и уважения к чистоте родного края, духа предков. В.Таджибоев отмечает, что все ученыe четырех сект, известные как Ахли Сунна валь Джамаат, дали ряд фетв, в которых говорилось, что паломничество к гробнице полезно и полезно. Например, Хафиз Багдади говорит, что имам шафиит сказал: "Меня бы поздравили с Абу Ханифой раЖматуллой. Почти каждый день я посещал его могилу, совершая два ракаата молитвы, если мне было нужно, а затем приходил к могиле Абу Ханифы Рахиматуллы и просил Аллаха, чтобы хаджа - Тим был равным там, моя потребность была равной". Караймский Шейх Хафиз Джазари в своей книге "Хиснул Хасин" писал, что могилы праведников-это места, где молитва является ответом". Когда человек исповедует свои грехи, посещает могилы святых, которые ближе к Аллаху, чем он сам, и

взывает к Богу там, Всевышний Аллах отвечает на его молитву уважением к праведникам тех святых. Такое проявление веры в исламе называется "Васила". То есть, прося Аллаха о его нужде, раба делает посредником между ним и Богом святого [8]. Исламский ученый Б.Бобоевонтверждает, что "практика паломничества" была запрещена в исламе в ранние времена, а затем была разрешена во многих сектах в результате пересмотра запретов в Коране и их отмены. Этот обычай, противоположный первобытному исламу, возник под влиянием местных форм религиозных верований. Исходя из характеристики святынь и так называемых "священных" мест на территории Центральной Азии, в том числе и нынешнего Узбекистана, ученые дают различную классификацию. Они включают в себя мавзолеи, то есть мусульманские гробницы, "священное" место, паломничество и другие термины. Например, исследование М. Тастанбекова, жители Центральной Азии выделяют могилы как "святые" или святыне, а также как обычные кладбища в качестве мест в своей жизни [5].

Методология исследования. В данной статье, посвященной место паломничества в культурной жизни местного населения, используются научные методы исследования, такие как анализ, синтез и сравнительный анализ.

Анализ и результаты. Посещение гробниц-одно из тех действий, которые совершаются по прямому указанию Посланника Аллаха (мир Ему и благословение Аллаха), если оно продолжается со временем блаженства. Но со временем, как и во многих шариатских делах, в паломничестве к гробнице стали появляться различные ереси. Правильные вещи смешивались с неправильными. В результате ученые также уделили особое внимание этой теме, установив правила, позволяющие отличать Машру от номашру, а Сунну от ереси. Таким образом, совершаемые паломничества были разделены

на три разновидности: шариатские паломничества, паломничества, смешанные с еретиками, и паломничества с политеизмом [1]. О том, что и мужчинам, и женщинам разрешено посещать могилы, говорится в "Джомеуль-метод" в "сборнике основ" в бурае (р.а.) цитируется следующее: "Посланник Аллаха, да благословит его Аллах и приветствует, сказал": Я запретил вам посещать могилы. Однако самому Мухаммаду было разрешено посетить могилу своей матери. Соответственно, он сказал: "продолжайте посещать могилы, потому что посещение могил напоминает вам о загробной жизни". Легенда гласит, что Всевышний сказал: "Я запретил вам посещать могилы, но теперь продолжайте посещать могилы и не говорите там ничего постыдного" [3]. В произведении аз-Захиди "Шарх аль-Кудури" ("комментарий к труду Кудури") приводится следующее упоминание Имама Мухаммада Шейбани рахимахуллы в его произведении "Аль-Осар" ("следы"): "нет ничего плохого в посещении гробниц с целью благословения прав умерших и поминования загробной жизни". На самом деле это то, что сказал Абу Ханифа рахимахулла. Прямое значение высказывания, цитируемого имамом Мухаммадом Шейбани рахимахуллой, само по себе указывает на то, что женщины могут посещать могилы вместе с мужчинами [7]. "Паломник"- это тот, кто совершает паломничество или посещает святые места. Паломничество, по мнению религиозных ученых, является одним из укрепляющих действий для мужчин. Туркский комментарий "Риязус-салихий", который разрешал женщинам посещать только могилу пророка Мухаммеда, также не наносит вреда паломничеству к могиле для женщин, за исключением того, что Джомеуль-усул свободный от интриг, придерживающийся исламской этики и дисциплины является обязательным условием в работе "набор фундаментов". Среди религиозных святынь которые считаются ценными для всех мусульман в целом, отношение к мавзолеям также имеет особое значение. Обычно говорят, что сидение во дворе исламских мавзолеев с верой и верой само по себе очищает душу. Внутренняя часть мавзолея всегда формируется как место захоронения. Посещение гробниц принято называть паломничеством. Действия и ритуалы, которые совершают паломники, во многом зависят от степени их преданности святым-святым, преданным религии и суфиям[6]. Представления о паломничестве, святынях и святынях среди населения сформировались с древних времен, и в большинстве случаев паломничество в основном осуществляется следующим образом: а) ежегодное паломничество семьи по традиции; б) паломничество на человека в семье из-за определенной проблемы; г) паломничество из-за прогулок организованных сообществом. Исследования, проведенные среди населения, показывают, что основная цель большинства паломников в настоящее время-получить душевное спокойствие, попросить Бога о ребенке с помощью святого или попросить помощи в решении других социально-экономических проблем. Из этого следует, что большинство жителей оазиса совершают паломничество не для того, чтобы верить в святых, а для того, чтобы успокоиться и решить свои проблемы [4]. Паломническая практика включала в себя следующие действия:

1. Абидова З. Святыни и памятники Хорезмского оазиса доктор философии (PhD) по истории диссертация. - Ташкент, 2018. –Б. 17-19.
2. Абдулкодиров Дж. Паломнический туризм: духовная сила и духовное питание брошюра/ – Ташкент, 2022. –Б. 71-72.
3. Исламская мысль научно-образовательное религиозно-культурное, информационное издание – Ташкент, 2021. – Б. 11.
4. Эшонкулов З. Этикет паломничества-Ташкент: Movarounnahr, 2015. –Б. 29-30.
5. Тастанбеков М.М., Динашева Л.С., Оражхан Н.О., Оспанова А. Pilgrimage of Turkestan Muslims After joining to Russia // 2nd Cyprus International Conference on Educational Research, (Cy-Icer 2013). Procedia-Social and Behavioral Sciences 89. – 2013. – RR. 667- 675.
6. Sadia Delvi. В суфийский двор, Даргхас Дели. Нью-Дели: Harper Collins publisher, 2012. –П. 15.
7. Абдурахман Ставит. Исламская Этика. - Ташкент: Movarounnahr, 1997. –Б. 47.
8. Таджибоев Б. Паломничество на могилу и васила // уроки имама аль-Бухари. -2013, № 4. –Б. 271-272.

1. Обойдите могилу три или семь раз и потрите ее лоб вокруг могилы.

2. Чтение Корана духам святых и предков у входной двери в здание гробницы святых. [4].

3. Прикоснуться к могиле святого и связанным с ним деревьям, а затем помазать его лицо рукой.

4. Чтобы разогреть на дереве, сорвать с себя платок или кусок одежды, с намерением.

5. Пить воду из священных колодцев и источников с целью очищения или избавления от болезней.

6. Приготовление ритуальных блюд.

7. Мы можем наблюдать такие действия, как принесение жертвы святому.

Паломники также верили в достижение своих целей, выполняя все эти действия. Авиши считали паломников покровителями, связывающими их с Аллахом, поручителями, передающими их намерения, желания. По этой причине паломничество к святым местам занимает особое место в жизни местных жителей. В народе есть замечательная поговорка: "Святые не боги, но и не лишенны Бога". Сама же пословица выражает то, что отношение людей к святым всегда было на высоком уровне. С другой стороны, считалось, что паломничество к святым облегчает страдания людей и защищает их от различных злых вещей [4]. Наличие в Узбекистане более 7300 памятников культуры, многие из которых признаны ЮНЕСКО, также свидетельствует о достаточном потенциале нашей страны в развитии этой сферы. Во время паломничества в человеке воплощаются пять истинных переживаний, которые мы можем назвать духовными, культурными, экологическими, светскими и просветительскими. Для людей счастье может быть фактором позитивного поведения и эмоций, которые они вызывают. Примером этого является известный психолог Мартин Селигман, который сказал: "Счастье человека связано с 3 элементами: позитивными мыслями, работой, которую он выполняет, и его смыслом" [2]. Говоря о некоторых положительных качествах, которые формируются у человека во время посещения, можно упомянуть следующее: 1. Душевное спокойствие. 2. Установление отношений. 3. Самоконтроль. 4. Формирование доброй эмпатии. Конечно, мы можем принести много таких ощущений, которые формируются в человеке во время паломничества. Дело в том, что у туриста, возвращающегося из паломничества, эти ощущения являются привычкой и могут сохраняться в дальнейшей жизни [3].

Заключение. Святыни и святыни важны не только как религиозно-духовный центр, но и как одно из стратегических направлений, обеспечивающих экономическое развитие страны. Паломничество является основой для общения между разными народами, смягчения напряженности в религиозно-социальном обществе, повышения у людей таких человеческих чувств, как толерантность, взаимосотрудничество, доброта и любовь к Родине. В целом, табаррук играет важную роль в паломничествах не только как религиозно-духовный центр, но и как одно из стратегических направлений, обеспечивающих экономическое развитие страны.

ЛИТЕРАТУРА



Xamdam MATYAKUBOV,
Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: hamdamtarix@gmail.com

Urganch innovatsion universiteti dotsenti, t.f.n R.Abdirimov taqrizi asosida

BRONZA DAVRIDA MARKAZIY OSIYO QADIMIY AHOLISINING MIGRATSIYALARI TIZIMI XORAZM VOHASI MISOLIDA

Annotatsiya

Aholi sonining ko‘payishi, xo‘jalik sohalarining rivojlanishi, Markaziy Osiyoda keng hududlarni o‘zlashtirishga, chuchuk suv manbalari hamda tabiiy resurslarga boy yerlarni urug‘chilik jamoalari tomonidan egallab olishga sabab bo‘lib, aloqa yo‘llari jadal taraqqiy topgan. Markaziy Osiyoda qadimiy aholisining migratasiyalari – qabilo-elatlari, qadimgi xalqlarning hududlar bo‘ylab keng miqyosda ko‘chishi jarayonlari, ko‘p holatlarda madaniy va iqtisodiy jihatdan taraqqiyotga xizmat qilib, etnomadaniy an‘analarning qorishib ketishiga ko‘maklashgan. Maqolada bronza davrda Markaziy Osyo qadimiy aholisining migratasiyalari tizimi Xorazm vohasi misolida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bronza davri, migratasiya tizimi, urug‘chilik jamoasi, ko‘chmanchi chorvadorlar, xo‘jalik sohalari, madaniy xo‘jalik tiplari.

СИСТЕМА МИГРАЦИИ ДРЕВНЕГО НАСЕЛЕНИЯ СРЕДНЕЙ АЗИИ В ЭПОХУ БРОНЗЫ НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

Аннотация

Рост численности населения, развитие отраслей хозяйства привели к освоению обширных территорий в Средней Азии, занятию родоплеменными общинами земель, богатых источниками пресной воды и природными ресурсами, быстрому развитию путей сообщения. Миграции древнего населения Средней Азии – племен, процессы масштабного перемещения древних народов по территориям, во многих случаях служили культурному и экономическому развитию и способствовали смешению этнокультурных традиций. В статье рассматривается система миграций древнего населения Средней Азии в эпоху бронзы на примере Хорезмского оазиса.

Ключевые слова: бронзовый век, система миграции, родоплеменная община, кочевники-скотоводы, отрасли хозяйства, типы культурного хозяйства.

THE SYSTEM OF MIGRATION OF THE ANCIENT POPULATION OF CENTRAL ASIA IN THE BRONZE AGE ON THE EXAMPLE OF THE KHOREZM OASIS

Annotation

The increase in the population, the development of economic sectors, led to the development of vast territories in Central Asia, the occupation of lands rich in fresh water sources and natural resources by tribal communities, and the rapid development of communication routes. The migrations of the ancient population of Central Asia - tribes, the processes of large-scale migration of ancient peoples across territories, in many cases served cultural and economic development and contributed to the mixing of ethnocultural traditions. The article examines the system of migrations of the ancient population of Central Asia in the Bronze Age on the example of the Khorezm oasis.

Key words: Bronze Age, migration system, tribal community, nomadic herders, economic sectors, types of cultural economy.

Kirish. Insoniyat tarixida aholi migratasiysi, ya‘ni yashash joyini o‘zgartirib, viloyatlar, mintaqa va mintaqalararo miqyosida bir hududdan boshqasiga ko‘chish, qadimgi davrlardan bugunga qadar, muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Migratasiyalar tartibi va sabablari turli omillarga asoslanib o‘rganiladi. Odatda, migratasiyalar ijtimoiy (demografik), iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillardan kelib chiqib, ichki va tashqi ko‘chishlarga, uzoq va nisbatan yaqin masofalarda amalgalashirilgan migratasiyalarga ajratiladi, shuningdek, ishlab chiqarish va mehnat jarayonlari bilan bog‘liq joydan joyga vaqtincha ko‘chish hamda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvador aholisining mavsumiy migratasiyalariiga ajralib turadi [16].

Tarixda ko‘chib yurish turmush tarzi ilk aloqa yo‘llari tamoqlarining paydo bo‘lishiga ko‘maklashgan. Aloqa yo‘llari hali ulov-transport vositalari noma‘lum bo‘lgan tosh davrida vujudga kelgan. Mezolit-neolitga kelib, boshda muzlik davri tugashi natijasida iqlim va tabiiy-geografik sharoit o‘zgaradi. Aholi sonining ko‘payishi, xo‘jalik sohalarining rivojlanishi, Markaziy Osiyoda keng hududlarni o‘zlashtirishga, chuchuk suv manbalari hamda tabiiy resurslarga boy yerlarni urug‘chilik jamoalari tomonidan egallab olishga sabab bo‘lib, aloqa yo‘llari jadal taraqqiy topgan [14].

Tahlil va natijalar. Markaziy Osiyoda qadimiy aholisining migratasiyalarini o‘rgangan E. V. Rtelveladzening yozishicha qabilo-elatlari, qadimgi xalqlarning hududlar bo‘ylab keng miqyosda ko‘chishi jarayonlari, ko‘p holatlarda madaniy va

iqtisodiy jihatdan taraqqiyotga xizmat qilib, etnomadaniy an‘analarning qorishib ketishiga ko‘maklashgan[17].

So‘nggi yillarda eneolit, bronza va ilk temir davri migratasiyalar muammolari A. Sagdullayev, O. Abdullayev, A. Shaydullayev va J.Tog‘ayevlar ishlariida, shu jumladan, xorijda chop etilgan maqolalarida ko‘rib chiqilgan va Markaziy Osyo misolida, migratasiyalar kartografiyasining muhim masalalari ochib berilgan[18]. Quyi Amudaryo havzasasi, Orolbo‘yi hududlarining arxeologik materiallari asosida migratasiyalar mavzusiga nisbatan Jonbos 4 makonining o‘rganilishi natijasida neolit davri madaniy va etnik aloqalarning ba’zi yo‘nalishlarni belgilash masalasi ro‘yobga chiqarilib, bu aloqalar “Orolbo‘yidan shimal va shimoli-sharqiga qarab borganligi bilan bir qatorda, Kaltaminor madaniyatining, garchi yaqqol sezilib turmasada, Janubiy Eron va Hindiston bilan ham aloqa qilib turgani shubhasizdir” degan xulosaga kelingan[21].

Biroz keyin, V. N. Cherenson va A. A. Formozovlar Sharqiy Kaspiybo‘yi hamda Orolbo‘yi mezolit va neolit davrlari urug‘doshlik jamoalarining Volga va Ural daryolari oralig‘i, Uraloti qabilalari bilan madaniy aloqalari masalasini ko‘rib chiqishdi [24]. A. V. Vinogradovning ta’kidlashicha, bu yo‘nalishda, dastavval, madaniy va texnik an‘analarning o’tkazish xususida so‘z yuritish kerak, ayrim holatlarda esa Sharqiy Ustyurt va Shimoli-Sharqiy Orolbo‘yi orqali neolit davri jamoalarining ko‘chishi haqida gapirish mumkin [23].

Ushbu tadqiqotning oldingi sahifalarida mezolit neolit davri jamoalarining u yoki bu hududni o'zlashtirib, o'troqlashib yashash muddati, nafaqat atrofdagi tabiatda iste'molga yaroqli boshqoli va ildiz mevali o'simliklarning serobligi hamda yovvoyi buqa, jayron, bug' va boshqa hayvonlar soni bilan belgilangan, balki yovvoyi hayvonlarning mavsumiy migratsiyalariga qaram bo'lganligi aytib o'tilgan edi. Chunki hayvonlarni ovlash orqali yuqori kaloriyalı oziq mahsuloti – go'sht qo'lga kiritilgan. Shu tufayli, ovchilar jamoalarini yashash joylarini o'zgartirib, hayvonlar podalari izidan ko'chib yurishgan.

Shu mavzuga tegishli, Ustyurt platasida mezolit va neolit davriga oid 200 ta mavsumiy va oraliq makon-joylarning topib tekshirilishi [5] va ulardan ovchilar tomonidan Ustyurtda dasht hayvonlarning to'planishi mavsumda vaqtincha foydalanganligi, misol tariqasida keltirildi. Bu shundan dalolat beradiki, ovchilarning Ustyurt platosiga Sharqiy Kaspiybo'y, Janubiy Orolbo'y va Volga-Ural daryolari oralig'i huđudlaridan ko'chib kelishi, mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, ularning yashash joyini o'zgartirish maqsadidan yiroq edi va avval istiqomat qilingan huđudlarga qaytib kelish imkonи bo'lgan. Biroq yildan-yilga ko'chish va an'anaviy yashash joylarga qaytish jarayonining takrorlanishi natijasida tosh davri ovchilarning dastlabki so'qmoqlari keyingi tarixiy bosqichlarida Ustyurt platosini kesib o'tgan muhim madaniy-iqtisodiy aloqalar va migratsiyalar yo'llariga aylanib, undan Yevroosiyoda dasht chorvadorlari hamda Sharqiy Yeron va Markaziy Osiyo janubida yashagan dehqonchilik jamoalarini foydalishgan [19].

Dastlabki xo'jalik aloqa so'qmoqlari paydo bo'lishi bilan bir qatorda Xorazm vohasidagi Sulton Uvays tog'lari tevaragida so'ngi paleolit davri ovchilarining mavsumiy makonlari Markaziy Qizilqum va Quyi Zarafshon huđudlari bilan bog'liq holda rivoj topdi hamda Ustyurt Janubiy Orolboy-Yuqori Uzbroy-Sharqiy Kaspiy yo'nalishdagi aloqa yo'llarning tarmoqlari shakllana boshlaydi [11]. Bu o'z navbatida, Kaspiy va Orol dengizi oralig'i, Qizilqum dashtlarini Kaltaminor madaniyati qabilalari tomonidan o'zlashtirishga xizmat qildi. Neolit va eneolit davrlarida mintaqasi miqyosida ko'chish jarayonlarida arxeologik yodgorliklarning kartografiyasini ma'lumotlari asosida o'rganilgan.

Bronza davrida, mill. avv. III ming yillikning oxirlariga kelib, Xorazm vohasida ilgari xo'jalik sohalari va moddiy madaniyat an'analari saqlanib rivoj topgan paytda, Markaziy Osiyoning Quyi Murg'ob daryosi vohasiga (kelgusida Marg'iyyona), Afg'onistonning shimoli-sharqiy yerlari va Janubiy O'zbekiston xududiga (Baqtriya), Shimoliy Mesopotamiyadan boshlab Elam, sharqiy Eron va Turkmanistonning janubig'arbidan keng miqyosdagi amalga oshirilgan aholi migratsiyasi natijasida Marg'iyyona - Baqtriya (yoki Amudaryo-Oks) sivilizatsiyasi vujudga keladi [3]. U asosiy belgilarga ko'ra (shaharlar, mudofaa tizimi, ibodatxonalar, yuqori darajada rivoj topgan xunarmandchilik sohalari) hamda dehqonlar- chorvadorlar, hunarmandlar, quruvchilar va savdogarlardan iborat jamiyat bo'lgan. Bu sivilizatsiyaning Gonur, Dashtli, Sopolli va Jarquton kabi yodgorliklari keng o'rganilgan.

Tadqiqodchilarining yozishicha, taxminan mill. avv. XVII-XVI asrlarda, Dashli-Sapolli madaniyatiga oid aholi guruhlari, avval o'zlashtirilgan vohalardan chiqib turli huđudlarda yoyilganlar. Ularning moddiy madaniyat ashyolari Janubiy Tojikistonda, O'rta Zarafshon vohasi va sharqiy Farg'onada topib tekshirilgan mozor-qo'rg'onlarida aniqlangan [2]. Mill. avv XVI asrda Quyi Volgabo'y va Janubiy Ural orolig'i huđudlaridan Srubnaya-Andronovo deb atalgan madaniyatlar chorvador dasht qabilalari hamda G'arbiy va Markaziy Qozog'iston, G'arbiy Sibirdan Andronovo madaniyati urug'chilik jamoalarining Markaziy Osiyoga ko'chib kelishning dastlabki bosqichi boshlanib, dasht chorvador qabilalarning uzluksiz migratsiyalari keyin ham davom etadi. Mazkur masala tadqiqodchilarining ishlarida XX asrning 60-80 yillarda [12] hamda XXI asrning birinchi choragida [4] ko'rib chiqilgan.

Xorazm vohasi bronza davrida dasht qabilalarining oraliq huđudiy markaziga aylanib, Andronovo madaniyatiga oid mavsumiy makonlari Amudaryoning Oqchadaryo deltasi havzasida topilgan. Shu asosda Janubiy Orolbo'yida Tozabog' yob madaniyati paydo bo'lgan [7].

Ikkinchidan, Xorazmdan Uzboy o'zani va Sharqiy Kaspiybo'y'i aloqa yo'li orqali dasht chorvadorlari Turkmaniston janubiy-g'arbiga yetib borishgan, Amudaryoning o'ng va so'l sohillari bo'ylab, ular Quyi Zarafshon havzasini, Quyi Murg'ob vohasi, Janubiy O'zbekiston va Shimoliy Afg'oniston huđudlariga kirib kelishgan. Shu tariqa, Ustyurt palatasi va Orolbo'yida mezolit-neolit davrlarida shakllanib rivojlangan aloqa yo'llari muhim tranzit yo'llariga aylanib, qabilalarning migratsiyalariga xizmat qiladi.

Bu masalaning ayrim jihatlari mazkur tadqiqotning muallifi tomonidan ilgari ham qisqacha ko'rib chiqilgan edi [13], lekin bundan beri to'plangan yangi ma'lumotlar, ushbu muhim mavzuni va u bilan bog'liq bo'lgan etnomadaniy muammolarni ochib berishni taqozo etadi. Bronza davrida inson hayoti, turmush tarzi tubdan o'zgardi. Ijtimoiy mehnat taqsimoti tufayli, dehqonchilik sohasidan hunarmanchilik, savdo-sotiq va chorvachilik xo'jaligi ajralib chiqadi, transport vositalari paydo bo'lib, keng iqtisodiy aloqalar yo'lga qo'yiladi va bronzadan ishlangan qurollar hamda turli buyumlar keng miqyosda tarqaladi. Bronza asrida ishlab chiqarish kuchlari ancha yuksalib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixda o'zgarishlar yuz berdi.

Mil. avv. II mingyillikning boshlariga kelib, Amudaryo Uzboy o'zanining suvgaga to'ynishi pasayib qoladi. Aksincha, Okchadaryo o'zanida suv sathi ko'tarilib, daryo Orol dengizigacha quyilgan va shu yo'nalishdagi pasttekislikda daraxtlar va butalardan iborat o'rmon paydo bo'lgan [15]. Daryo atroflarida, dehqonchilik ko'nikmalariga ega bronza davri chorvadorlari o'z manzilgohlari va mavsumiy makonlarini bunyod etishgan.

Bronza davriga oid, boshda bir-birini davr jihatidan izchil almashtirilgan Suvyorgan, Tozabog'yob va Amirobod madaniyatlarini xususida so'z yuritilgan. S. P. Tolstovning yozganiga ko'ra, Suvyorgan madaniyatiga Erondan Xorazmga ko'chib kelgan etnik guruhlari asos solingen [20].

Keyinchalik Suvyorgan madaniyatini alohida ajratishga asos bo'limganligi aniqlandi. Shu sababdan, M.A. Itina "Suvyorgan madaniyatiga" tushunchasini Orolbo'y bronza davri madaniyatlarini klassifikatsiyasidan chiqarish zaruriyatini qayd etgan [8].

Andranova madaniyati chorvador qabilalarning Janubiy Orolbo'yiga ko'chib kelishi natijasida Quyi Amudaryo havzasida yangi madaniyat shakllandi. Bu qabilalarning xo'jalik sohasida chorvachilik yetakchilik qilgan bo'sa-da, lekin ular o'z yurtlaridagi daryo o'zanlari tevaragidagi nam yerdalarda chorva uchun yem-hashak bo'lgan o'simliklarni hamda arpani yetishtirganlar [6]. Ularning jamoalarida bronzadan mehnat qurollari, maishiy buyumlar va yarog'-aslahalarni yashash hunar kasblari rivojlangan.

Xorazm vohasi bronza davri qabilalari arpa va bug'doyni yetishtirishning janubiy ziroatkorlardan olib o'zlashtirilganligi ehitimoldan holi emas. Lekin vohada bronza davri madaniyati turar joylarida arpa, bug'doy don qoldiqlari aniqlanmagan. Shu tariqa, mahalliy urug'doshlik jamoalarini chorva uchun yem-xashak bo'ladigan o'simliklarni, asosan, ekib parvarish qiligganga o'xshaydi.

Andronovo madaniyati qabilalarining keng miqyosidagi migratsiyalari Yevroosiyoda dashtlarida iqlimning o'zgarish, qurq'oqchilikning boshlanishi, chorva podalarining ko'payishi va yangi yaylovlarni o'zlashtirish zaruriyati, yilqichilik va ulov-transport vositalarining rivojlanishi, qo'shimcha mahsulot bilan ayriboshlash, mis va qalay ma'dan konlarini egallab olish kabi sabablar bilan bog'lanib, talqin qilindi [10].

Etnik jarayonlari va aholisining etnik tarkibini o'rganishda arxealogik materiallarning ahamiyati beqiyosdir. Migratsiyalar orqali kelgindi qabilalarning mahalliy aholi vakillari bilan qorishib ketishi etnogenez bilan bog'liq bo'lib, ko'chib kelgan etnik guruhlarining mayjudligini antrapologik va tarixiy-madaniy belgilarga asoslanib, anqliplash tarixiy tadqiqotlar usuli sifatida keng qo'llaniladi.

M.A. Itina Oqchadaryo vohasida tekshirilgan bronza davri manzilgohlari orasida sof Andronovo madaniyati makonlarini ajratadi. Shu madaniyatga daxldor bo'lgan yarim yerto'la, chayla ko'rinishidagi turar joylarning qoldiqlari va geometrik naqshlar bilan bezatilgan sopol idishlarning parchalari topilgan [7].

Ikkinchidan, Ko'kcha 3 makoni qadimiylar qabriston qazib o'r ganilgan qabrular oddiy chuqurlardan iborat bo'lib jasadlar bukchaytirilgan holda bir tomoniga yonboshlatlit ko'milgan. Marhumlar skeletlari yonidan sopol idishlar bronzadan ishlangan tig'li pichoqlar bigiz ayollarning qabrlaridan esa bilaguzuglar va munchoqlar topilgan [9].

Shuningdek qabristondan olingan odam bosh chanoqlari o'r ganilib, dafn etilgan odamlarning antrapologik tipi ichida Andranova madaniyati qabilalariga xos Yevropoidlar bilan Markaziy Osiyoning qadimiylar aholisiga mansub O'rtaer dengizi tipi aniqlangan [22].

Xulosa. Umuman olganda, tadqiqotchilarining yozishicha neolit davridan boshlab, Xorazm vohasi urug'chilik jamoalarining mintaqaga janubida yashagan dehqonchilik aholisi va shimalda joylashgan dasht ovchilar qabilalari bilan aloqalari yo'ilga qo'yilgan. Agarda janubdagi jamoalariga O'rtayer dengizi antrapologik tip xos bo'lsa, Orolbo'y iaholisiga irqiy jihatdan Yevroosiyoda dashtlarida yashagan yevropoidlar qabilalarga ko'proq qarindosh bo'lgan [1].

Ushbu etnik jarayonga Xorazm vohasining qadimdan Volgaboyi, Ural va G'arbiy Qozog'iston dashtlarini qamrab olgan iqtisodiy-madaniy mintaqasi doirasida joylashganligi va aholi migratsiyalari ta'sirining ehtimoli yuqorida.

ADABIYOTLAR

- Алексеев В. П., Аскаров А. А., Ходжайов Т. К. Историческая антропология Средней Азии. – Ташкент: “Фан”, 1990. – С. 101-105.
- Аманбаева Б. Э., Рогожинский А. Е., Мэрфи Д. Могильник Шагим-новый памятник эпохи бронзы Восточной Ферганы // Археологические исследования в Узбекистане. 2004-2005 гг. – Тошкент: “Фан”, 2006. – С. 256-265.; Аванесова Н. А. Зеравшанский вариант Андronовской историко-культурной общности // Ўзбекистон археологияси мустакиллик йилларида: ютуклар ва истиқболлар. – Самарканд, 2006. – С.34-38.
- Askarov A. Ancient agricultural culture of the Bronze Age in the south of Uzbekistan. – Tashkent: “Fan”, 1977. – 232 p.; Sarianidi V. I. Ancient farmers of Afghanistan. – M.: “Nauka”, 1977. – 170 p.
- Бижанов Е. Б. Мезолитические и неолитические памятники Северозападного Устюрта // Археология Приаралья. – Ташкент: “Фан”, 1982. – С.14-37.
- Грязнов М.П. Пастушеские племена Средней Азии в эпоху развитой и поздней бронзы // КСИА. 1970. № 122. – С. 40-41.
- Итина М. А. История степных племен Южного Приаралья // Тр. ХАЭЭ. – М., 1977, Т. X. – С. 104-127.
- Итина М. А. К истории изучения бронзового века Южного Приаралья // Приаралье в древности и средневековье. – М.: ИВЛ, 1998. – С. 88.
- Итина М.А. Раскопки могильника тазабагъябской культуры Кокча 3 // МХЭ. – М., 1960. Вып. 5. – С. 41-74.
- Итина М. А. Взаимодействие земледельческих цивилизаций Средней Азии с их «варварской» периферией в эпоху бронзы // Древние цивилизации Востока. – Ташкент: “Фан”, 1986. – С. 132-133.
- Кудайбергенов С. Ш. Оролбуйи қадимги давр алоқа йўллари тизимида // Марказий Осиё тарихи ва археологияси: анъаналар, инновациялар ва истиқболлар. – Тошкент, 2021. – Б. 59-63.
- Кузьмина Е. Е. О южных пределах распространения степных культур эпохи бронзы в Средней Азии // Памятники каменного и бронзового века Евразии. – М.: “Наука”, 1964. – С. 148-154.; Гулямов Я. Г., Исламов У., Аскаров А. Первобытная культура... С. 187-207.; Сарианиди В. И. Степные племена эпохи бронзы в Маргииане // СА. – М., 1975, № 2. – С. 20-28.; Виноградова Н. М., Кузьмина Е. Е. Контакты земледельческих и степных племён в эпоху бронзы // Восточный Туркестан и Средняя Азия в системе культур древнего и средневекового Востока. – М.: “Наука”, 1986. – С. 126-151.
- Матякубов Х. Қадимги Хоразмда миграция жараёнлари // Ўрта Осиё тарихи ва маданияти. – Тошкент, 2014. – Б.122-129.
- Мавлонов Ў. М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Ташкент : “Академия”, 2008. – Б. 14-19.
- Низовъя Аму-даръи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения. // МХЭ. – М., 1960. Вып. 3. – С. 345.
- Проблемы этнической географии и картографии / Ответ. Редактор С.И.Брук. – М.: “Наука”, 1978. – С. 86-89.
- Ртвеладзе Э. В. Цивилизации государства: культуры Центральной Азии: – Ташкент. 2005. – С. 32-33.
- Сагдулаев А.С., Тогаев Ж. Э. Миграции эпохи бронзы в Центральной Азии // Проблемы истории, археологии и этнологии Центральной Азии. – Ташкент. 2018. – С. 88-94.; Sagdullaev A, Abdullaev I, Tagaev J. Historical reconstruction the Bronze and Early Iron age of Central Asia: ethnocultural processes, migrations and economic relations // Cultural Heritage of Uzbekistan. From Petroglyphs to the Present Days. – Lublin, 2022. – Pp. 23-33.; Сагдулаев А. С., Шайдуллаев А. Ш., Тогаев Ж. Э. Одревневосточных и евразийских миграциях в Центральную Азию // Поволжская археология. – Казань, 2023. № 4. – С.113-128.
- Сагдулаев А. С., Шайдуллаев А. Ш., Тогаев Ж. Э. О древневосточных... С 116.
- Толстов С. П. По древним дельта Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ, 1962. – С.61.
- Толстов С. П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб...Б. 79-80.
- Трофимова Т. А. Древнее население Хорезма по данным антропологии // МХЭ. – М., 1959. Вып. 2. – С. 15-29.
- Виноградов А. В. О распространении наконечников стрел кельтесиарского типа // Этнография и археология Средней Азии. – М.: “Наука”. 1979. – С.8.
- Черенцов В. Н. К вопросу о сложении уральского неолита // История археологии и этнография Средней Азии. – М.: “Наука”. 1968. – С. 41-55.; Формозов А. А. О роли закаспийского и приаральского мезолита и неолита в истории Европы и Азии // СА. – М., 1971. № 1. – С. 22-35.



Kalligul TANGIRBERGENOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi
E-mail: Kalligul@mail.ru

Falsafa fanlari doktori S. Sulaymonov taqrizi asosida

SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE PEOPLES OF KARAKAPAKIA IN THE SECOND HALF OF THE XIX - BEGINNING OF THE XX CENTURY

Annotation

The article examines agriculture in the economic sphere and the specialization of commodity production, as well as the development of the colonial economy and industry, which led to a change in the lifestyle of the population, the growth of commodity and money circulation, the emergence of market and stationary trade, the creation of new shopping centers, and the development of industrial commodity production.

Key words: Trade, despotic, raw material, commodity, social, money, stationary, culture, economy, market, capitalist, firms, fair.

QORAQALPOG'ISTON XALQLARINING XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDAGI IJTIMOIY IQTISODIY HAYOTI

Annotasiya

Maqolada qishloq xo'jaligining iqtisodiy sohada va tovar ishlab chiqarishning iqtisodiy o'sishi, shuningdek, aholi turmush tarzining o'zgarishiga olib kelgan mustamlaka iqtisodiyoti va sanoatining rivojlanishi, iqtisodiyot va moddiy madaniyatning rivojlanishi, tovar va pul muomalasining o'sishi va bozor va stacionar savdoning o'sishi, yangi savdo markazlarining paydo bo'lishi, shuningdek tovar ishlab chiqarishning ko'chayishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Savdo, despotik, xomashyo, tovar, ijtimoiy, pul, stacionar, madaniyat, iqtisodiy, bozor, kapitalistik, firmalar, yarmarka.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ НАРОДОВ КАРАКАПАКИИ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация

В статье рассматривается сельское хозяйство в экономической сфере и специализация товарного производства, а также развитие колониальной экономики и промышленности, что привело к изменению образа жизни населения, росту товарного и денежного обращения, возникновению рыночной и стационарной торговли, созданию новых торговых центров, развитию промышленного товарного производства.

Ключевые слова: Торговля, despoticheskiy, сырье, товар, социальный, деньги, стационарный, культура, экономика, рынок, капиталистический, фирмы, ярмарка.

Kirish. Qoraqalpoq xalqi tarixida xalq xo'jaligi iqtisodiyotining va moddiy madaniyatning rivojlanishidagi turli jihatlarini, shuningdek, xalqlar o'tasidagi tarixiy-madaniy aloqalar bilan bog'liq tadqiqotlarini ilmiy tadqiq etish doimo tarix fanlari uchun asosiy tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Ammo ushu sohani tarixiy aspektda tadqiq etish, uning muhim xususiyatlarini tarixiy tadqiqotlar nazariyasi va metodologiyasi asosida tahlil etish masalasi tarix fani oldidda turgan muhim masalalardadir. Ya'ni, o'rganilayotgan mavzuz doirasida tarixiy nuqtai nazaridan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar qamrovini yanada kengaytirish, sohaning o'rganilmagan yo'nalişlarini tarixiy aspektda ilmiy tadqiq etish ishlarini kengaytirish dolzarbdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning uslubiy va nazariy asosi turli xil ilmiy prinsiplar va tadqiqot usullari to'plamidir. Tarixiylik tamoyilidan foydalanan xalqlarning iqtisodiyoti va moddiy madaniyatining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixini, xalqlar o'tasidagi tarixiy va madaniy aloqalarni o'rganishga imkon berdi. Arxiv manbalari va nashr etilgan hujjatlar bilan ishlashda ilmiy obyektivlik prinsipidan foydalanan konyunktura ta'siridan tashqari haqiqatni namoyish etishni, taqdim etilgan voqealar faktlarining retrospektivasini ta'minladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyodagi XIX-asr va XX-asr boshlariga oyd ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat muammolari tadqiqotchilar nuqtai nazaridan uzoq vaqtidan beri mavjud. Tabiiyki, ma'lum barsha masalani qamrab olgan barcha nashrlar va adabiyotlarni ko'rib chiqish mumkin emas, ulardan faqat o'rganilayotgan mavzuga bevosita tegishli bo'lgan eng muhimlарini keltiramiz. Amudaryo ilmiy ekspedisiyasi 1874 yilda topografik, meteorologik, etnografik, statistik, tarixiy, botanik va zoologik tadqiqotlar o'tkazdi. Ushbu otryad Qoraqalpog'iston xalqlarining tarixi va etnografiyasi bo'yicha katta miqdordagi

materiallarni yig'di, aholining etnik tarkibi, oilalar, tegimonlar va mavjud erlar sonini ko'rsatadigan 220 ta aholi punktlarining nomlarini, shuningdek charm, kulolchilik va boshqa ishlab chiqarilgan unumlar haqidagi ma'lumotlar beradi [1].

XIX asrning II yarmi – XX asr boshlarida, ya'ni Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakasiga aylantirilgandan keyin bu erga rus savdo-sotiq kapitalining kirib kelishi, ko'shirip kelingan aholi, o'ikanaging metropoliyaga qaramligi kuchayib, u rus savdo-sanoat burjuziyasining xom-ashyo bazasi va beminnat bozoriga aylanib borishi jarayonlari o'zbek tarixchi olimlari A.M.Aminov, Gapparov Sh.S va D.Ziyoeva ilmiy tadqiqot ishlarida tahlil qilingan[2]. Qoraqalpog'iston tarixchi olimlaridan S. K. Kamalovning ilmiy tadqiqot ishlarini ko'rib chiqilayotgan mavzuni o'rganish uchun katta ahamiyatga ega[3], Farg'ona vodysi qoraqalpoqlarining XVII-XX - asr boshlarida boshqa xalqlar bilan munosabatlari masalalari L. S. Tolstova tomonidan bat afsil ko'rib chiqilgan [4]. Qoraqalpog'iston xalqlarining agrar va paxta monokulturasi munosabatlari masalalari M.K. Saribaevning tadqiqot ishlarida batafsil urganilgan [5].

Tarixshunoslik tadqiqotlarining hozirgi bosqichida Qoraqalpog'iston xalqlarining ijtimoiy iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi umumlashtiruvchi ilmiy tadqiqotlar mavjud emas.

Tahlil va natijalar. Qoraqalpog'iston xalqlarining qadim zamonlardan beri qishloq xo'jaligi, chorvachilik va baliqchilikni o'z iqtisodiyotida muvaffaqiyatli birlashtirgan edi. Qoraqalpog'iston xalqlarining, O'rta Osiyo xalqlari, Qozog'iston, Volga bo'yli, Sibir va Kavkaz bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarini kuzatish mumkin. Qoraqalpog'iston xalqlari ko'plab xalqlar bilan ko'p asrlik aloqalarga qaramay, irrigasiya, chorvachilik va baliq ovlashga asoslangan iqtisodiyot turini saqlab qolishdi. Ushbu ma'lumotlar XIX -XX asr boshlarida qoraqalpoqlarning moddiy

va ma'naviy madaniyati rivojlanishining asosiy bosqichlari xususiyatlarni ilmiy tushunish uchun katta qiziqish uyg'otadi.

Qoraqalpog'istonda hunarmandchilikning rivojlanishi nafaqat Amudaryoning quyi qismidagi shahar va qishloqlar, balki O'rta Osiyo va Qozog'iston shaharlari bilan ham bog'liq edi. Arxiv hujjalri materiallarni o'rganish orqali Toshkent bilan savdoga oid ayrim materiallarni aniqlash imkonini beradi. Toshkent bozorida qoraqalpoqlar yasagan hunarmandchilik buyumlari ham sotilgan; turkman, qozoq va qoraqalpoq otlari (ularning nomi "Qo'ng'irot") butun Markaziy Osiyoda mashhur bo'lgan. Ularga Samarcand, Toshkent va Farg'ona bozorlarida talab katta edi. Farg'ona vodiysi konlariidan qazib olingan neft Qoraqalpog'istoniga olib kelinib, Amudaryo transport flotiliyasiga yoqilg'i etkazib bergan. Turkulda Farg'ona neft mahsulotlari va kerosini olib kelinib sotilgan.

Qoraqalpog'iston aholisi Buxoro bilan savdosi orqali Buxorodan Qoraqalpog'istoniga non "olib keligan", Amudaryo nonining Buxoroga olib borip sotilgani ham kuzatilgan. Qoraqalpog'istonlik chorvadolrlar o'z qoramollarining bir qismini Buxoroda sotildilar, shuningdek, Qoraqalpog'istonidan Buxoroga ko'mir va tijorat baliq mahsulotlari bilan savdo qildilar.

Qoraqalpog'iston xalqi, shuningdek, eng yaqin Xiva shahri bilan savdo va hunarmandchilik aloqalarini olib borgan, u erda o'nta bozorda don sotilgan, ulardan Chimboy shahri tovar aylanmasi bo'yicha birinchi o'rinni, Pitnyak ikkinchi o'rinni, Xo'jayli, Ilyali va Qo'ng'irot uchinchi urinni egalladi. Amudaryoning Janubiy qirg'og'idan Qo'ng'irotga turli xil tovarlar, uylar uchun yog'och hunarmandchilik, sut mahsulotlari ishlab chiqarish uchun yog'osh hunarmandchilik buyumlari va baliqchilar uchun qayiqlar etkazib berildi. Qoraqalpog'iston xaqi va Xiva aholisining barchasi Karaumbet va Sulton Sanjar ko'llarida hunarmanddar tomonidan qazib olingan osh tuzi bilan ta'minlangan edi. Qoraqalpoq hunarmandchilik savdogarlarini hunarmandchilik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini boshqa xalqlardan, ayniqsa Qozog'istonning Kazalinskdan sotib olishigan. Sirdaryo statistika qo'mitasining hisobotiga ko'ra, qoraqalpoq hunarmanddar tomonidan tayyorlangan jugaradan taerlangan un maxsulotlari, uy jihozlari, sho'rangan qizil baliq non va boshqa iste'mol tovarlari Qozog'istonning Kazalinsk shaxriga etkazib berilgan [6]. Qoraqalpoq aholisining aksariyati dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik va ovchilik bilan shug'ullangan, qishloq xo'jaligi xalq xo'jaligining etakchi tarmogi bo'lgan. Chor Rossiyaning bosib olinishi va mintaqaning rus tovarlari bozoriga aylanishi natijasida hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan ishlab chiqaruvchilar katta yo'qotishlarga duch kelishdi.

Rossiya imperiyasi hukumati 1870-yillardan boshlab Turkistondan xom ashyo eksportini ko'paytirish siyosatini olib borishni boshladi. Shu bilan birga bozorlar chor Rossiyaning sanoatining tovarlari bilan to'ldirila boshladi.

Qoraqalpog'istonda chor Rossiya hukumati etishtirilgan paxta ustidan to'liq nazoratga ega edi va paxta Rossiya imperiyasi uchun boyish manbayi, mahalliy aholi uchun qashshoqlik sababshisiga aylandi. Qoraqalpog'iston o'lkasi asta - sekin agrar va xom ashyo etkazib bero'vchi jahon bozori iqtisodiyoti tizimiga tortildi. Qoraqalpog'istonda paxtaga bo'lgan talabning yuqoriligi Markaziy Osiyo xalq xo'jaligi iqtisodiyotida o'zgarishlarga olib keldi. Ammo, sug'oriladigan erlarda paxta ekinlarining ko'payishi dehqonlarning ahvoli yomonlashishiga olib keldi, chunki don va sabzavot ekinlari uchun ajratilgan maydonlar kamaydi.

Chor Rossiysi sanoatining agrar-xom ashyoga iqtisodlashtirilgan mustamlakachilik xarakteriga ega edi, uning ishlab chiqarishining 76% paxta tozalash sanoati, 7% yog'maxsulotlari, 5% oziq-ovqat maxsulotlariga mo'ljallangan edi [7]. Sanoat juda kam rivojlangan edi, lekin u bir tomonlama xarakterga ega edi, chunki u faqat Rossiyaning ehtiyojlariga xizmat qildi. Qoraqalpog'iston o'lkasida kapitalizm rivojlanishining o'ziga xos xususiyati shundaki, Rossiya kapitalining yarmidan ko'pi sanoatga emas, balki maksimal foyda kafolatlangan savdo sohasiga ishlatalgan. Ishlab chiqarishga yunaltirilgan mablag'lar samara bera olmadи, shuning uchun kapitalning katta qismi samarasiz ishlataldi. Qoraqalpog'istonda 128 ga yaqin zavod fabrikalar bor edi. Ularni faqat shartli ravishda zavod deb atash mumkin edi, chunki ushbu zavodlarda ko'proq qo'l mehnati o'stunlik qilgan. Ishlab chiqarishdag'i ish

kuni 16 soat davom etdi ishchilar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar yo'q edi. Qashshoq dehqonlar o'z er uchastkalarini sotishga majbur bo'ldilar, bu esa kambag'al va ersiz dehqonlar sonimi keskin oshirdi. Rossiya kapitali mintaqaga iqtisodiyotining tabbiy shakkllarini yo'q etdi. Rossiya chorizmining Qoraqalpog'istoniga nisbatan barcha rejalar paxtachilikni rivojlanirish bilan bog'liq edi. Qoraqalpog'istonda don ishlab chiqarish keskin pasayib, aholining Rossiyanadan olib kelinadigan oziq-ovqatga qaram qilib qo'ydi. Paxta ekinlari maydoni ko'paya boshladi. Paxtachilikning rivojlanishi birinchi, paxta tozalash zavodlarining paydo bo'lishiga yordam berdi.

Qoraqalpog'istonning Petro-Aleksandrovsk shahrida 1892 yilda savdogar I. Sazonov bug' dvigatelli birinchi paxta tozalash zavodini qurdi. 1894 yilga kelib savdogar Manuilov kerosinda ishlaydigan ikkita dvigatelli zavod qurdi va 1906 yilga kelib Manuilovlarga tegishli zavodlar soni to'rttaga etdi. Petro-Aleksandrovsk shahrida paxta urug'idan paxta yog'ini qayta ishslash zavodi qurildi [8].

XX asrning boshlarida rus ishchilar bilan birga paxta zavodlarida qoraqalpoq ishchilarini paydo bo'la boshladi. Qoraqalpog'istonda paxta va beda etishtirishning rivojlanishi ushbu soxalarda sanoat korxonalarining paydo bo'lishiga olib keldi, ammo ular faqat qishloq xo'jaligi xom ashyosini birlamchi qayta ishslash bilan sho'g'ullanardi. Asosan ushbu erdag'i zavod va fabrikalarning aksariyati chor Rossiyanining savdo-sanoat markazlari, "Buyuk Yaroslavl manufakturası sherikligi" va "Moskva savdo-sanoat sherikligi" agentlariga tegishli edi. Ular Rossiya-Osiyo banking Urgench shahridagi bo'limi bilan birgalikda Qoraqalpog'istonning shahar va qishloq joylarida savdo va sudxo'rlik ishlarini amalga oshirib, katta daromad keltirdilar, yaratilgan korxonalar mitti va texnik jihatdan qoloq edi [9]. Ammo muhim shundaki, ular markazdan eng qolqoq va chekka hududlarda yaratilgan va ularda hayotga yangicha qarashlarga ega bo'lgan yangi odamlar o'sishiga imkon yaratilgan. Qoraqalpog'istonda paxta xom ashyosini birlamchi qayta ishlangan va savdogar-vositachilardan olinadigan barcha turdagi xom ashyolar uchun xizmat etishi kerak bo'lib, ular uchun ushbu mahsulotlari aholiga oshirilgan narxlarda qayta sotish uchun berilgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston xaliqlarning kundalik hayotida Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan – quyma temir bo'yumlari va temir asboblari (qozonlar bolta, belkurak) shisha idishlari, chinni idishlar, keng tarqaldi. Qishloq xo'jaligida, karam, kartoshka va boshqa ekinlar paydo bo'ldi.

Qoraqalpog'istonda Uraldan keltirilgan rus kazaklari 1875 yilda Amudaryo deltasiga joylashdilar va baliq ovlashni boshladilar va qoraqalpoqlar rus kazaklaridan bir qator baliq ovlash texnikasini o'zlashtirdilar, baliq ovlash vositalarini oldilar va rus asboblari bilan tanishdilar. Ushbu davrda sanoat korxonalaridan o'n uchta kichik sanoat korxonasi (asosan paxta, un maqsuloti etishtirish, neftni qayta ishslash, terini kayta ishslash zavodlari, pivo zavodlari) paydo bo'ldi, shu bilan birga o'ndan ortiq tijorat baliq ovlash korxonalarini rivojlandi. Qoraqalpog'istonda asosan Chimbay uchastkasida bedaning tijorat ekini sifatida ahamiyati yanada oshdi.

Chimbay uchastkasi 1913 yilda beda etishtirish bo'yicha birinchi o'rinda edi, bu erda beda ekilgan maydon beda ekinlarining 94 foizini tashkil etdi. Agar, ushbu davrda Xiva xonligida beda faqat urug'lik ekinlari uchun o'stirilgan bo'lsa, Chimbayda u asosan eksport maxsuloti o'chun mo'ljallangan edi. Qoraqalpog'istonda tayorlangan beda urug'lari ekspert uchun tayorlanib, nafaqat Rossiya, balki xalqaro bozorida ham yuqori sifatga ega bo'lib Germaniya, Amerika, Kanada va Argentinaga eksport qilingan va eng yaxshilaridan biri hisoblangan. Ushbu beda urug'i ekinning asosiy eksportchilari Rossiya-Osiyo banki edi [10].

Qoraqalpog'iston xaliqlari chorva qoylarning uchta zotini ko'paytirganlar: qozoq (go'sht mahsulotlari), rus (jo'n mahsulotlari) va o'zlarining Qorako'l (teri mahsulotlari). Sado aylanmasining rivojlanishi munosabati bilan Qorako'lga bo'lgan talabning ortishi 1906-1908 yillarda ushbu zotli qoylar sonining 60 mingdan, 74090 ko'payishiga olib keldi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosining rivojlanishi, tovar-pul munosabatlarining Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligiga kirib borishi bilan qishloq xo'jaligi va chorvachilik mahsulotlari savdosi kengaydi.

Savdo, yuqorida aytib o'tilganidek, haftada ikki marta bozorlarda amalga oshirildi. Qoraqalpog'istonning barcha yirik shaharlarida bozorlar Petro-Aleksandrovsk, Shayxabazvali, SHo'raxon, Biybazar, Saribi (SHo'raxon uchastkasi), Chimbay, Nukus, Nazarxon (Chimbay uchastkasi), Xodjryli, Qungirot va Mangit (Shabbaz uchastkasi) da joylashgan edi. Urganchda 1909 yilda Moskva savdo-sanoat sherikligining bosh binosi tashkil etildi. Markaziy Rossiyadan sanoat tovarlari Qoraqalpog'istoniga yirik savdogarlar S. Ravilov, I. Brodskiy va K. Shirman savdo firmasi va Andre-Kaspiyning arman firmasi, shuningdek Orenburg va xom ashyo uchun kelgan boshqa savdogarlar tomonidan etkazib berildi. Qoraqalpog'istondan paxta va teri xom ashesi Moskvaga, jo'n xom ashesi Nijniy Novgorod yarmarkasiga va o'rta Volga viloyatiga, gilamlar Turkiyaga, sariyog maxsulotlari Bokuga, baliq mahsulotlari Orenburgga yuborildi [11].

Qoraqalpog'istonning aloqa yo'llarining kamligi iqtisodiy rivojlanishini sekinlashtirdi, yuk tashish va Amudaryo so'v transporti va Orol dengizi flotiliyalari, hamda "Xiva" aksiodorlik kompaniyasi tomonidan ham amalga oshirildi. Orol dengizi flotiliyasi harbiy maqsadli tufayli nisbatan qishloq xo'jaligini mahsulotlarini tashidi, yiliga 30 ming pud, shu jumladan 15 ming pud paxta xom ashysi tashilgan. Qoraqalpog'iston butun Rossiya va jahon bozoriga kiritildi.

Chakana savdo korxonalari soni ko'paydi, iqtisodiy o'zgarishlarning jadal rivojlanishi tufayli Qoraqalpog'iston xaliqu xo'jaligida aholining o'ziga xos an'anaviy xo'jaligi xususiyatini yo'qotdi.

Xulosa va takliflar. Qoraqalpog'istonda birinchi navbatda, xaliq hunarmandchiligi o'rnini sanoat tovarlari egallagan moddiy iqtisodiy madaniyatda namoyon bo'ldi. Ta'kidlash joizki, ushbu tendensiya qoraqalpoqlarning moddiy iqtisodiy madaniyatda turmush tarzining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi yana bir omil hisoblanadi. Bu jarayonga, birinchi navbatda sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, nafaqat Qoraqalpog'iston aholisi xaliqu xo'jaligida va hayotning yangi, yanada rivojlangan shakllarini o'zlashtirdilar, transport tarmog'ida ko'plab yangi usullarini o'zlashtirdilar. Ushbu davrdagi sanoat va moddiy hayot sohasidagi jarayonlari sodir bo'lishi jaraenlariga nisbatan, iqtisodiy moddiy madaniyatdag'i va kundalik hayotidagi qisman xo'jalik yuritish usullarini saqlab qolishgan. Ushbu bosqichda olimlar muayyan muammoni o'rganishga har tomonlama yondashishg'a, ya'ni kundalik hayot va madaniyat, shuningdek, hayotning boshqa sohalari o'rtasidagi qadriyatlari va munosabatlarini ochib berishlari zarur. Shuni ta'kidlash kerakki, xaliquarning iqtisodiy rivojlanishi tarixi muammolarini, moddiy madaniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishini, xaliqular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarini o'rganishda ularni hisobga olish kerak. Tadqiqot metodologiyasining muhim qismi xalqlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning kelib chiqishi tarixi, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlanirish kerak, bu bizga tarixiy jarayonni, madaniy va iqtisodiy aloqalarning birligida, tarixiy, madaniy va iqtisodiy munosabatlarning kengayishiga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

- Берг Л.С. Рыба и промыслы в устьях Сырдарьи и Аральского моря. Санкт-Петербург, 1900; Данилевский Г.И. Очерк о Хивинском ханстве. //Русское географическое общество. Книга V. Санкт-Петербург, 1851; Шкапский А.О, Амударинские очерки: к аграрному вопросу в низовьях Амударьи. Т., 1900;
- Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (со второй половины XIX столетия до первой мировой войны). Т.,1959; Гаппаров Ш.С. Тарих ва таддир: Россия империясидан Туркистонга кўширилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларида). Т., Фан,2006; Зиёева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларида). Т., 2013.
- Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII-XIX вв. (К истории взаимоотношений с Россией и среднеазиатскими ханствами). Ташкент, 1968.
- Толстова Л. С. Каракалпаки за пределами Хорезмского оазиса в XIX - начале XX вв. Нукус, 1963;
- Сарыбаев М.К. История хлопководства в Каракалпакстане (1873-1941), Автoreферат диссертации кандидата исторических наук, Н., 1998.
- Статистический отдел Амударинского отдела //ЦНА РУз. Ф.Р.3. оп. 1. д. 172. л. 123.
- O'z. MMA, F. I-914, op.1, d. 392, l. 198.
- O'z.MMA F. И-907, op.1, d. 138, l. 201.
- Петро-Александровское отделение Туркестанского народного банка // ЦНА РУз. Ф.Р-8. Оп. 3. Д. 58. л. 234.
- O'z MMA, F. F.3. op. 1. d. 172. l. 123.
- O'z MMA. F. И-907, op.1, d. 345, l. 289.



Zamira TOIROVA,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

E-mail: zamiratoirova55@gmail.com

PhD A.Mamatjonov taqrizi asosida

XX ASRNING 50-80- YILLARIDA TOSHKENT IQTISODIY RAYONINING AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asrning 50-80- yillarda Toshkent iqtisodiy rayonining mehnat resurlari, aholi darajasi, urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarining aholi demografiyasi hamda iqtisodiy rayonda ishlab chiqarish va sanoat sohalariga ta'siri kabi mavzular tegishli adabiyotlarga tahliliga yondashgan holda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Aholi darajasi, migratsiya, urbanizatsiya, mehnat resurslari, demografiya, qo'l mehnati, sanoat korxonalar.

POPULATION AND LABOR RESOURCES OF TASHKENT ECONOMIC DISTRICT IN THE XX CENTURIES 50-80 YEARS

Annotation

In the 50s and 8s of the 20th century, topics such as labor resources of the Tashkent economic region, population level, population demographics of urbanization and migration processes and the impact on production and industrial sectors in the economic region were covered with an analytical approach to the relevant literature.

Key words: Population level, migration, urbanization, labor resources, demography, manual labor, industrial enterprises.

НАСЕЛЕНИЕ И ТРУДОВЫЕ РЕСУРСЫ ТАШКЕНТСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНА В XX ВЕКАХ, 50-80-Е ГОДЫ

Аннотация

В 50-х и 8-х годах 20-го века такие темы, как трудовые ресурсы Ташкентского экономического региона, уровень населения, демографические показатели урбанизации и миграционные процессы, а также влияние на производство и промышленные секторы в экономическом регионе, рассматривались с использованием аналитического подхода к соответствующей литературе.

Ключевые слова: Численность населения, миграция, урбанизация, трудовые ресурсы, демография, ручной труд, промышленные предприятия.

Kirish. Toshkent iqtisodiy rayoni O'zbekiston Respublikasining eng muhim va strategik hududlaridan biri hisoblanadi. Bu rayon mamlakatning markaziy qismida joylashgan bo'lib, uning iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim rol o'yynadi. Toshkent shahri, bu rayonning markazi sifatida, nafaqat O'zbekistonning, balki butun Markaziy Osiyoning yirik sanoat, ilmiy va madaniy markazlaridan biri hisoblanadi.

1950-1980-yillar davri Toshkent iqtisodiy rayoni uchun katta o'zgarishlar va rivojlanish davri bo'ldi. Bu yillar davomida rayonning aholisi sezilarli darajada o'sdi, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida katta yutuqlarga erishildi. Ushbu davrda amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat va davlat dasturlari, shuningdek, migratsiya jarayonlari, aholi soni va tarkibiga katta ta'sir ko'rsatdi. Maqolaning asosiy maqsadi 1950-1980-yillar davrida Toshkent iqtisodiy rayonining aholisi va mehnat resurslari sohasidagi asosiy o'zgarishlar va rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishdir. Ushbu davrda aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlar, mehnat resurslarining rivojlanishi, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalaridagi yutuqlar, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar batafsil yoriltiladi.

Asosiy qism. Toshkent iqtisodiy rayoni aholisi va mehnat resurslari mavzusidagi ushbu maqola, tarixiy ma'lumotlar va statistik tahlillar asosida, ushbu davrning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Maqola, shuningdek, kelajak uchun tavsiyalar va istiqbollarni ham o'z ichiga oladi.

Avalvo mavzuga oid adabiyotlar tahlili ni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. D.Bobojonovaning "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80- yillar misolida)" kitobida Toshkent iqtisodiy rayonining 50-80 yillardagi iqtisodiy rivojlanishi, aholisi va mehnat resurslari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Kitobda demografik o'zgarishlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalaridagi mehnat resurslari haqida statistik ma'lumotlar mavjud. G.Asanov, M.Nabixonov, I.Safarovlarning hammullifligida yozilgan "O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy-

jo'g'rofiyasi" nomli asarda O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi, jumladan Toshkent iqtisodiy rayonining ahvoli haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Kitobda 50-80 yillardagi mehnat resurslari va ularning taqsimlanishi haqida ham ma'lumotlar mavjud. Narzulla Jo'rayev, Shodi Karimov "O'zbekiston tarixi. O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davri Ikkinchi kitob". Kitobda keltirilgan ma'lumotlar Toshkent iqtisodiy rayonining demografik o'zgarishlari va mehnat resurslarining rivojlanishi haqida aniq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Berilgan tahlillar va statistik ma'lumotlar mavzuni chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

Asanov G.R., Nabixonov M. "O'zbekiston SSRning iqtisodiy va sotsial geografiyasi". Ushbu asarda Sovet Ittifoqi davrida, xususan 50-80 yillarda O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

80-yillarda Toshkent iqtisodiy rayoni aholisi tez sur'atlar bilan o'sdi. Bu davrda shaharga ko'chib kelganlar soni ko'paydi, bu esa urbanizatsiya jarayonini tezlashtirdi. Aholi sonining oshishi bilan birga, demografik tarkib ham o'zgardi. Yoshlar soni ko'paydi, bu esa mehnat resurslarining yangilanishiga olib keldi. Shuningdek, ayollar va erkaklar o'tasidi mehnat bo'linishi ham o'zgardi, ko'proq ayollar ishchi kuchiga qo'shildi.

Toshkent iqtisodiy rayonida mehnat resurslari ko'payishi bilan birga iqtisodiy rivojlanish ham jadallahshdi. Bu davrda sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinnari yaratildi. Sanoat korxonalari va zavodlar soni oshdi, bu esa ko'plab ishchilarni jaib qildi. Qishloq xo'jaligida ham yangi texnologiyalar joriy etilishi bilan mehnat unumdonligi oshdi. O'zbekistonda aholining tabiiy o'sishi yuqori darajada bo'lib, keyingi o'n yilliklarda har yili o'rta hisobda 2,5 foizdan ko'payib bordi. Jumladan, 1970-yili 11,8 mln aholi yashagan bo'lsa, 1986-yilga kelib, 18,4 mln kishiga yetdi. Shu jumladan, aholining 1970-yilda 63,4 foizi, 1986-yilda esa 59,5 foizi qishloqda yashagan. Ro'yxatda ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbolini belgilashda shaharlar, ayniqsa yirik shaharlarning ahamiyati kattadir. O'zbekistonda 1970-yili 43

ta shahar bo'lib, ularning soni 1986-yilga kelganda 123 taga yetdi. O'zbekiston Qoraqlopg'iston Respublikasi va 12 viloyatni o'z ichiga oladi. Respublika hududida aholi, ayniqsa shahar aholisi ancha notekej joylashgan, shunga ko'ra viloyatlar kattakichikligi, aholisining soni va zichligi jihatidan bir-biridan katta farq qiladi. 1970-yili Toshkent viloyatini (Toshkent shahri bilan birgalikda) 4 mln. 800 mingdan ortiq aholi yashagani holda Xorazm viloyatinining aholisi 557 ming kishidan bir oz ortiq edi xolos [1]. Shaharlar sonining o'sishi o'lkamizda iqtisodiy taraqqiyot birmuncha susaygan, nisbatan turg'unlik holati ro'y berayotgan bir paytda ancha tezlashdi, bunga xom ashyyoga mo'ljallangan yangi sanoat shaharlarining vujudga kelganligi sabab bo'ldi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi davrida shaharlarning aholisi soni bo'yicha katta - kichikligi muhim ahamiyatga egadir. Aholisi 500 mingdan ortiq bo'lgan eng yirik shaharlar guruhiga respublikamizdan faqat Toshkent shahri kiradi. U aholisining soni jihatidan sobiq ittifoqdagi Moskva, Leningrad va Kiyev shaharlaridan keyin to'rtinchisi o'rinda turardi. 1970-1980 yillarda aholi sonining o'sishi Moskva shahrida o'rtacha 1,35 foizga, Leningradda 1,45 foizga, Kiyevda 2,95 foizga va Toshkent shahrida 3,05 foizga teng bo'lgan [2]. Toshkent shahri fan-teknika va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy markazi hisoblanadi. Iqtisodiy rayon hududida 4,3 mln kishi yashaydi (1991). Bu esa respublika aholisining 20,8 % ini tashkil etadi. Aholining o'rtacha zichligi Toshkent iqtisodiy rayoni bo'yicha 1 km² ga 275,6 kishi, Toshkent shahri aholisini qo'shmaqanda esa 140 kishi to'g'ri keladi. Aholi hudud bo'yicha notekej joylashgan. Daryo vodiylari va o'zlashtirilgan vohalarda aholi eng zich (1 km² ga 400 kishi atrofida), tog' va tog' oldi qismlarida esa ancha siyrak. Toshkent iqtisodiy rayonni aholisining o'sish sur'atlari respublikaning boshqa rayonlariga nisbatan pastroq. Tabiiy o'sish Toshkent iqtisodiy rayonida respublikadagi boshqa rayonlardan eng past bo'lishining asosiy sababları bu rayonda urbanizatsiya darajasining yuqoriligi, ayollar respublikaning boshqa viloyatlari va rayonlaridagi nisbatan ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtiroy etishi, aholi milliy tarkibining xususiyatlari kabilardir. Viloyat aholisining milliy tarkibini o'zbeklar (39,9%), ruslar (19,9%), tatarlar (8,9%), qozoqlar (6,3%), koreyslar (3,2%), ukrainlar (2,2%), yahudiylar (2,1%) va tojiklar (2,1% ni) tashkil qiladi. Bu ma'lumotlardan ko'rindaniki, iqtisodiy rayonda o'zbeklar aholining yarmimi ham tashkil qilmas ekan. Aholining hududiy joylashuviga kelganda shuni aytish kerakki, ruslar, ukrainlar, tatarlar, yahudiylar asosan shaharlarda, qozoqlar Chirchiq, Ohangaron, Keles havzasida, tojiklar iqtisodiy rayonning tog'lik hududlarida, koreyslar Chirchiq vodiyida, o'zbeklar esa rayonning deyarli hamma joylarida yashaydi. Shuningdek, Toshkent iqtisodiy rayoni respublikada urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududdir. Iqtisodiy rayonda shahar aholisining salmog'i 71,5 % ni tashkil etadi. Toshkent iqtisodiy rayonida 17 ta shahar va 19 ta shaharcha bor. Respublika poytaxti Toshkent va yirik sanoat shaharlari – Angren, Olmaliq, Chirchiqdir. Mehnat resurslaridan foydalaniш samaradorligi bu yerda boshqa iqtisodiy rayonlardagiga nisbatan yuqori.

80-yillarda erishilgan yutuqlar va tajribalar Toshkent iqtisodiy rayonining kelajakdagи rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Aholi sonining o'sishi va mehnat resurslarining kengayishi bilan birga, yangi texnologiyalar va innovatsiyalar joriy etilishi bu hududning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirdi. Kelajakda Toshkent iqtisodiy rayoni nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi iqtisodiy markazlardan biri bo'lib qolishi kutilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi va aholining yashash sharoitlarining yaxshilanishi bu hududning jozibadorligini oshirdi. Yangi uy-

yojar, maktablar, kasalxonalar va madaniy markazlar qurilishi aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qildi. Bu esa kelajakda Toshkent iqtisodiy rayoniga ko'proq sarmoyadorlar va ishbilarmonlarni jalb qilishga yordam beradi.

Ittifoqdosh respublikalar bilan hamkorlikda respublikamizda ko'plab sanoat korxonalarini qurildi. 1971-1975-yillarda ittifoqdagi barcha respublikalar korxonalarining ischimutaxassislarini ishtirokida yengil sanoatning 8 ta yangi va 12 ta ishlab turgan korxonasi qayta qurildi, shu bilan birga ular yordamida yirik korxonalarining 130 ta filiali ham qurib bitkazildi [3]. 1971-1982 yillarda boshqa respublikalardan sanoat korxonalariga 380 turdag'i yangi mashinalar, 68 turdag'i asbob-uskunalar keltirildi. Toshkent to'qimachilik fabrikasiga Moskva, Riga, Penza, Kuznesk, Ivanovo shaharlardan keltirilgan dastgohlar o'matildi. O'zbekistonning ilg'or korxonalaridan biri bo'lmish Toshkent to'qimachilik mashinasozligi zavodining mahsulotli ham, o'z navbatida, ko'pgina qo'shni respublikalarda mashhur va manzur edi. Yigiruvchi mashina "PK - 100 - shi" 1976-yilda Leypsig shahrida o'tkazilgan ko'rgazmada oltin medalga sazovor bo'ldi. Shu markadagi mashinani Moskvaning "Proletarskiy trud" fabrikasi ham o'zlariga maqbul ko'rishdi. Toshkentdagi "Malika" trikotaj firmasining mahsulotlari ham barcha ittifoqdosh respublikalar ichida mashhur edi. Firmada keyingi yillarda yangi-yangi mashina va dastgohlar ixtiro qilindi. Bular ichida to'qilgan matoni chizmalar bo'yicha kesadigan mashinaning firma xodimlari V. Repeykov va G. Vlasovlar tomonidan ixtiro qilinishi katta voqeа bo'ldi. Mashina 83 kishining qo'l mehnati o'mini bosa olardi. Bunday mashina ixtiro qilinishining afzalligi shundaki, xalq xo'jaligidagi hali qo'l mehnatinining hissasi yuqori bo'lib, bu hissa sekinlik bilan kamayib bormoqda edi. Ayniqsa, yordamchi ishchilar mehnatini mexanizatsiyalash masalasiga alohida ahamiyat berish talab qilinadik, yordamchi ishchilar sanoatdagi barcha ishchilarning 50%ga yaqinini tashkil etar edi. Agar sanoatdagi asosiy ishlarda 64 % ishchilarning mexnatini mexanizatsiyalashgan bo'lsa, yordamchi ishlarda atigi 29% ishchining mehnati mexanizatsiyalashgan edi. Qo'l mehnatini mexanizatsiyalash uchun ajratilgan jami mablag'larning taxminan 80 % dan asosiy ishlab chiqarishda, 20 % dan esa yordamchi ishlab chiqarishda foydalilmoqda edi. Shu jihatdan olganda bunday mashinani yaratish davr talabi edi. Shuning uchun ham bu mashinaning 1979-yili Moskvada SSSR Xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasida namoyish etilishi bilan uning xaridorlari ko'payib ketdi. Mashinalarning birinchi taylor turkumi Abakan, Frunze (Bishkek) va Chorjo'y shaharlariга jo'natildi. Bu mashina yiliga 162 ming so'm iqtisod qilib bera olardi.

Xulosa. Toshkent iqtisodiy rayoni O'zbekistonning eng muhim iqtisodiy markazlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hududning strategik joylashuvni, tabiiy resurslari, rivojlangan sanoat va qishloq xo'jaligi, shuningdek, xizmat ko'rsatish sektorini va savdo-logistika tarmoqlari uning iqtisodiy geografik o'mini belgilaydi. Aholi soni va demografik tarkibi yuqori bo'lib, yosh va faol mehnat resurslariga boy. Bu esa iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo'shadi. Toshkent shahri va uning atrofidagi hududlar shaharsozlik jihatidan rivojlangan, bu esa aholi sonining oshishiga va iqtisodiy faoliyning ortishiga olib kelgan. Sanoat sektori, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sektorini, savdo va logistika, hamda qurilish sohalarida ko'plab aholi band bo'lib, bu sohalar iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo'shadi. Aholi va mehnat resurslarining yuqori darajada rivojlanganligi bu hududning iqtisodiy salohiyatini yanada oshiradi va uning kelajakdag'i rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR

- Бобоғонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий иктисодий муносабатлар (70-80 - йиллар мисолида). Т., 1999, б -57
- Народное хозяйство СССР в 1979г. Статический ежегодник. М.: "Статистика", 1980, С-18-19.
- Асанов Г., Набиҳонов М. Ўзбекистон ССРнинг иктисодий ва социал географияси.- Тошкент, 1984, б- 30-31.



Azizjon TOLIBJONOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi
E-mail: tolibjonovaziz895@gmail.com

T.f.d., prof. A.Xolikulov taqrizi asosida

FOREIGN POLICY OF THE STATE OF THE KHOREZMSHAHS-ANUSHTEGINIDS IN THE FIRST YEARS OF THE REIGN OF ALA AD-DIN ATSIZ

Annotation

This article, based on sources and works of researchers, highlights the priority directions of the foreign policy of the ruler of the state of Khorezmshahs-Anushteginids Ala ad-Din Atsiz in the first years of his reign, his ambassadorial relations with the Sultan of the Seljuks Sanjar and the Caliph of the Abbasids Mustarshid. Also, the author of the article highlights the events related to the political processes during the formation of the state of Khorezmshahs-Anushteginids.

Key words: Historiography, Anushteginids-Khorezmshahs, Seljuks, Karakhanids, Karakitais, Abbasids, Ala ad-Din Atsiz, Sultan Sanjar, emirs, embassy, political relations.

ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА ГОСУДАРСТВА ХОРЕЗМШАХОВ-АНУШТЕГИНИДОВ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ ПРАВЛЕНИЯ АЛА АД-ДИН АТСЫЗА

Аннотация

В данной статье, на основе источников и произведений исследователей, освещаются приоритетные направления внешней политики правителя государства Хорезмшахов-Ануштегинидов Ала ад-Дин Атсыза в первые годы правления, его посольские отношения с султаном сельджукидов Санджаром и с халифом аббасидов Мустаршидом. Также, автор статьи освещает события, связанные с политическими процессами в период образования государства Хорезмшахов-Ануштегинидов.

Ключевые слова: Ануштегиниды-Хорезмшахи, сельджукиды, караханиды, каракитай, Аббасиды, Ала ад-Дин Атсыз, Султан Санджар, эмиры, посольство, политические отношения.

ALOUDDIN OTSIZ HUKMRLIGINING DASTLABKI YILLARIDA ANUSHTAGIN – XORAZMSHOHLAR DAVLATINING TASHQI SIYOSATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Anushtagin – Xorazmshohlar davlatining Alouddin Otsiz hukmronligi dastlabki yillarida olib borgan tashqi siyosatining ustuvor jihatlari, uning saljo‘qiyalar sulton Sanjar bilan, Abbosiylar xalifasi Mustarshid bilan elchilik munosabatlari manbalar va tadqiqotchilar asarlari asosida yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada Anushtagin – Xorazmshohlar davlatining tashkil topishidagi siyosiy jarayonlar masalariga ham ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Anushtagin – Xorazmshohlar, saljo‘qiyalar, qoraxoniyalar, qoraxitoylar, abbosiylar, Alouddin Otsiz, Sulton Sanjar, amirlar, elchilik, siyosiy munosababatlar.

Kirish. Otsiz hukmronligining dastlabki yillarida saljo‘qiyalar sulton Sanjarga sodiq xizmat qilib, saroya katta obro‘ga ega bo‘lgan edi. Saljo‘q maliklari va amirlarning Otsizni nisbatan fitnalarini ikki o‘rtadagi munosabatlarning buzilishiga olib keladi. Ayni paytda Saljo‘qiyalarning kuchayib borayotganligidan xavfsiragan xalifa abbosiylar xalifaligi siyosiy hokimiyatini mustahkamlash maqsadida o‘ziga ittifoqchi qidira boshlaydi. Otsiz Abbosiylar xalifasi Mustarshidning Sanjar bilan souq munosabatlaridan foydalanish maqsadida u bilan o‘zaro aloqaga kirishadi. Chunki u ham xalifaning yordami bilan mustaqillikka erishishi maqsad qilgan edi.

Xorazmshohlarning mustaqillikka erishishi Sulton Sanjarning vafotidan keyingina amalga oshdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maqolani yoritishda yozma manbalar va tadqiqotchilarining ilmiy asarlari muhim o‘rin tutadi. Xususan, Abu Bakr ibn Jafar Narshaxiy, Ibn al-Asir, Abu Usmon Minhojuddin ibn Sirojiddin, Alouddin Atomalik Juvayniy, shuningdek tadqiqotchilaridan Bartold V.V (1965), Kafesoglu I. (1984), Buniyatov Z.M. (1986), Ahmed Taşağlı (2003), Köymen M.A. (2011) hamda boshqa mualliflar tadqiqotlarida Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning ayrim jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiylik, ilmiylik, xolislik, tarixiy ma’lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, mantiqiy ketma-ketlik singari tamoyillarga asoslanib, Anushtagin – Xorazmshohlar davlati tashkil topgan dastlabki yillarida tashqi siyosiy munosabatlari tarixi yoritib o‘tilgan.

Tahlil va natijalar. Jaloliddin Otsiz [1] 1099 yilda tug‘ilgan va otasi Qutbiddin Muhammad kabi Sulton Sanjarning

poytaxti Marv shahrida ta‘lim olgan. U otasi bilan birga urushlarda qatnashib, katta tajriba orttirgan. 1097 yilda Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad va Tug‘rul Tegin o‘rtasidagi kurashlarda Mang‘ishloq turkmanlari qatnashgan. Nihoyat, Otsiz otasi tirikligida Mang‘ishloqni qo‘lga kiritadi [2]. Otsizing bu yurishidan so‘ng Mang‘ishloq o‘g‘uzlari o‘z mustaqilligini yo‘qtadilar [3].

Alouddin Otsiz otasining vafotidan so‘ng, Xorazmda hokimiyatni o‘z qo‘liga oladi va davlatni to‘g‘rilik, adolat va haqqoniylig asosida boshqaradi [4]. U Sulton Sanjarning ko‘rsatmasiga binoan, mavjud siyosiy va ma’muriy an‘anaga ko‘ra, jiddiy qiyinchiliklarsiz Xorazmshoh etib tayinlanadi [5]. U “bilim va fazilat jihatidan”, “mardlik va jasoratda tengi yo‘q edi” [6]. Otsiz islom diniga va ulamolarga homiylik qilish bilan bir qatorda, turli fanlar va san‘at ahlini hurmat qilar, o‘zi ham forsiyda ruboiy va qasidalar bitar, ko‘plab buyuk shoirlarning baytlarini yoddan bilardi [7].

Otsiz Sulton Sanjarning xizmatida bir qancha joylarni fath qiladi va katta vazifalarini egallaydi [8]. U jasur sarkarda bo‘lib, Sulton Sanjar xizmatida bo‘lgan davrda bir nechta g‘abalalarni qo‘lga kiritgan va bu bilan o‘z homisining saroyida obro‘si ko‘tariladi. Hatto, u bir marta (1130 yili) Sulton Sarjarni fitnadan qutqarib qolgandi. Sulton Sanjarning jiyani – Mas‘ud ibn Muhammad Topar bilan bo‘lgan jangda Otsiz qo‘shining javong‘origa qumondonlik qiladi. 1132 yili Hamadon yaqinida bo‘lib o‘tgani ushbu jang Sulton Sanjarning g‘alabasi bilan tugaydi [9].

Tahminan shu davrlardan boshlab, Bag‘dod xalifasi Mustarshid bilan xorazmshohlar o‘rtasida siyosiy munosabatlari kuchaya boshlaydi. Saljo‘qiyalarning kuchayib borayotganligidan

xavfsiragan xalifa abbosiylar xalifaligi siyosiy hokimiyatini mustahkamlash maqsadida o'ziga ittifoqchi qidira boshlaydi. Bu kurashda Xorazmshoh Otsiz unga ittifoqchi bo'lishini mumkinligini bilgan holda shu ittifoqni tuzish va aloqalarni kuchaytirish uchun 1133 yili elchilar orqali qimmatbaho faxriy kiyim-kechaklar yuboradi [10]. Xalifasi Mustarshidning Xorazmga elchi jo'natishi Otsizning Sulton Sanjarga qarshi kurashini qo'llab-quvvatlashining belgisi edi. Bu esa, o'z navbatida Xorazmshoh Otsizning mustaqil tashqi siyosat yurita boshlaganligidan dalolat berar edi.

Bu davrda Otsizning obro'si saljo'qiyalar saroyida shu qadar yuksalib ketadiki, buni ko'rolmagan saljo'q maliklari va amirlari turli yolg'onlar to'qib, uning sulton bilan munosabatini buzishga urina boshlaydilar [11]. Manbalarda bunga Marv saroyidagi davlat arboblarining hasad qilishlari sabab bo'lganligi ta'kidlangan [12]. Davlat arboblarining Otsizga nisbatan rashklarining eng yuqori cho'qqisi sifatida Sanjarning ov jarayonida o'lirish rejasini aynan Otsiz uyushtirganini da'vo qilishgan va sulton nazdida qadri va obro'si ortgan Otsizni shu tarzda yo'q qilishni o'ylanganlar [13]. Vaholanki, Otsiz ushbu ovga chiqmagan va tush paytida uxlab yotgan joyidan uyqudan turib borib, tasodif tufayli Sulton Sanjarni yangi xizmatga olingen bir guruh fitnachi askar va qorovullarlarning qo'lidan qutqarib qolgan edi. Bu voqeа 1130 yili Qoraxoniylar podshohi Arslonxon ibn Muhammad Sulaymonning Sulton Sanjarga qarshi ko'tarilgan isyonи tufayli Movarounnahrga yurishi vaqtida ro'y bergen edi [14].

Otsizning o'zi ham Sulton Sanjarning unga bo'lgan munosabati o'zgarib qolganligini sezsa boshlaydi. Xususan, bu holat 1135 yil g'aznaviyalar amiri Bahromshohning saljo'qiyalarga qarshi ko'tarilgan isyonи vaqtida yaqqol ko'zga tashlanadi. Sulton Sanjar isyonni bostirish uchun G'aznaga va kelasi yilning shavvol (iyul-avgust) oyida Balxga qilgan safari vaqtida Otsiz Balx qal'asining qutvoli bo'lib turgan edi. Bu safarlar davomida amirlar va maliklarning unga nisbatan gina-adovatlari, g'arazlari hamda ularning Sulton ustidan qilayotgan yomonliklarini tushungan Otsiz qo'rqib, o'z yurtiga qaytib ketish uchun ruxsat suraydi. Sulton uning ketishiga izn beradi. Xorazmshoh Otsiz qal'adan chiqib ketishi bilan yonidagi amaldorlariga qarab: "U endi bizdan uzoqlashdi, endi bir marta ham uning yuzini ko'ra olmaymiz" deganida yonidagi ayonlar "Modomiki shunday ekan, nega unga qaytib ketishiga ruxsat berdingiz va unga yaxshi munosabatda bo'ldingiz?" deb suraydilar. Bu savolga Sulton "Uning bizda haqqi ko'p. Unga yomon munosabatda bo'lish bizning insoniylik tushuncha-mizga zid keladi", deb javob beradi [15].

Otsizning hukmronlik yillarini shartli ravishda ikkiga davrga bo'lishimiz mumkin: birinchi davr otasi kabi Sulton Sanjarga tobe bo'lgan davr (1128-1138); ikkinchi davr Sulton Sanjar bilan tinimsiz kurashlar davri (1138-1156).

Birinchi davrda u o'n yil davomida saljo'qiyalar sultoniga sadoqat bilan xizmat qilib, Sulton Sanjarga qarshi urish qilish yoki uning farmoniga qarshi chiqishni xayoliga ham keltirmaydi. Shu bilan bir qatorda Otsiz qo'shin to'plab, mamlakat chegalarini mustahkamlashga kirishadi. Yetarlicha kuch to'lab olgach, saljo'qiyardan qaramlikdan qutilish vaqt kelganligini, "Bunday buyon Sulton Sanjarga xizmat qilmasligini" ma'lum qiladi [16].

Boshqa vassallar kabi xorazmshoh Otsiz ham Sulton Sanjarning roziligi yoki buyrug'i bilan mamlakat chegarasi tashqarisidagi yerlarda yashovchi ko'chmanchi turklarga qarshi hujumlar yuushtirib kelgan. Bunday hollarda, sultonning roziligidiz o'zboshimchalik bilan mustaqil harakat qilish ta'qilangan. Ammo xorazmshoh ushbu an'anani buzib, o'z holicha harakat qiladi va saljo'qiyalarga tobe bo'lgan Sirdaryoning quiy oqimidan Jand shahrigacha bo'lgan hududni, shimolga yurish qilib Mang'ishloqni [17] bosib oladi. Otsizning bu harakati aslida, mustaqil tashqi siyosat yuritish va Sulton Sanjarning tobelligidan chiqish sifatida baholanadi.

Sulton Sanjar Otsizning bu o'zboshimchaligidan xabar topgach, uning ta'zirini berib qo'yish maqsadida hijriy 533 yillining muharram oyida Xorazmga qo'shin tortadi [18]. Sulton Sanjar bu ishni o'z holicha e'tiborsiz qoldirsса, boshqa vassallari – Xorazmga qo'shni bo'lgan Qoraxoniylar va G'aznaviyalar ham una qarshi isyon ko'tarishidan xavfsiraydi. Shu maqsadda Sulton

Sanjar katta qo'shin bilan kelib [19], Xazorasp qal'asini qamal qiladi. Otsiz mag'lubiyatga uchrab, "qamalga dosh berolmaydi va qochib ketadi. 10 mingga yaqin jangchilari halok bo'ladi. Ularning ichida Otsizning o'g'li Oqliq ham bor edi. Otsiz o'g'lining o'limidan qattiq qayg'uradi" [20]. Juvayniyning qayd etishicha, "Sanjarning askarları Otsizning o'g'li Oqliqni ushlab, sultonning huzuriga keltirdilar. Sanjarning amriga ko'ra, Oqliqni darrov ikkiga bo'lib tashlaydilar" [21].

Sulton Sanjar Otsiz ustidan g'alaba qozongach, an'anaga ko'ra, saljo'qiyalarga tobe bo'lgan barcha viloyatlarga fathnomalar jo'natib, ularda Otsizning sultonning ruxsatsiz Jand va Mang'ishloqni yurish qilgani va u yerdagi musulmonlarning qonini to'kkani uchun jazolash fikriga kelganligini ta'kidlaydi. Sulton Otsizga nisbatan yuqoridagi ayblarni qo'yar ekan, hijriy 526 yili (1132 y.) xalifa Mustarshidning vaziri Anushervon ibn Xolidga yozgan maktubida avvalgi fikriga zid ravishda Jand va Mang'ishloqning bo'ysundirilishi islom dinining shon-shavkatini yoyishga xizmat qilishini yozadi. Bu yerda Sulton Sanjarning bir voqeа siyosiy vaziyatga qarab turlicha baho berganligini ko'rishimiz mumkin [22].

Shuningdek fathnomada xorazmshoh sultonlikning Xorazmdagi vakinli – oliv nasabli amaldorni o'ldirganlikda, sultonning barcha xos vakillari va ma'rufon-i hazratni hibsga olib, ularning mol-mulklarini musodara qilganlikda, Xurosonga olib boruvchi yo'lni to'sib qo'yanlikda, Jayhun va boshqa daryolar kechuvaridan olinadigan soliqlarni talon-taroj qilib, sulton xazinasiga vaqtida yetkazib bermaganlikda, hamda ana shu kechuvarlar va ko'priklarga mas'ul bo'lgan xorazmlik amaldorlar bu yerdan o'tayotgan savdogarlarning mol-mulki va haramiga ko'z olaytirganlikda va hakazolarda aybdorligi ta'kidlanadi [23].

Sulton Sanjar Xorazmni jiyani G'iyosiddin Sulaymonshoh ibn Muhammadga iqto qilib beradi. Unga vazir, otabek va hojib tayinlab, Xorazmni boshqarish tartibini ko'rsatadi hamda shu yilning jumadi-ul-oxir oyida Marvga qaytadi [24].

Ammo G'iyosiddin Sulaymonshohning Xorazmdagi hokimiyatni uzoqqa cho'zilmaydi. Sulton Sanjar Marvga qaytib ketishi bilan (1139 yil, fevral), xorazmshoh Otsiz Xorazmga qaytib keladi va mahalliy aholining ko'magida Sulaymonshohni quvib chiqarib, o'z hokimiyatini o'rnatadi [25].

Lekin Otsiz bu xabar Sulton Sanjarga borib yetsa, Xorazmga qaytadan yurish boshlashidan xavfsirab, sultonga elchilar orqali maktub jo'natib, tobelik izhor qiladi va Sulton Sanjarning ko'nglini olib, Sulaymonshohni quvib yuborgan-ligini kechirishiga erishdi. Otsizning ushbu qo'llagan tadbirni uning siyosiy jihatdan uzoqni ko'ra olishidan dalolat beradi. Chunki bu vaqtida Otsiz qo'shimi qayta tiklash va bo'lajak janglar uchun tayyorlarligi ko'rib olishi kerak edi. Oradan ko'p o'tmasdan 1139 yilning o'zidayoq u qo'shni mamlakatlarga yurish qiladi. Otsiz dastlab Jurjonni, so'ngra Kabud-Jomanı (Astrabodning sharqiy qismida joylashgan viloyat) bosib oladi va uning ispojhbadi Alouddavla Ali ibn Shahriyorni asirga oladi. Ispojhbadning o'g'li shoh-G'ozzi Rustam shaxsan Xorazmshoh huzuriga kelib otasining gunohidan o'tishini so'ragach, Alouddavla Ali ibn Shahriyor ozod qilinib, Kabud-Joma xorazmshohlarning vassalligiga aylantiriladi [26].

Xorazmshoh Otsiz bir necha oy o'tib, hijriy 534 yili Buxoroga hujum qilib, Sulton Sanjarning voliysi Amir Zangini qo'lga olib o'ldiradi va shahar hisorini vayron qiladi. Hisor esa ikki yildan ko'proq vaqt qarosiz qoladi [27]. Sulton Sanjar Xorazmshohning bu yurishlarini o'g'li Oqliq o'ldirilganligi uchun qasos sifatida qabul qiladi va Otsizga qarshi hech qanday jazo choralarini ko'rmaydi. Buning boshqa sabablari ham bor edi. Chunki shu paytda Movarounnahr tomoniga qoraxitoylar bostirib kelayotgan edi.

O'z navbatida bunday vaziyatda Xorazmshoh Otsiz uchun ham Movarounnahrga tahdid solib kelayotgan qoraxitoylarga qarshi jangga tayyorlanayotgan Sulton Sanjar bilan munosabatlari yaqin bo'lishi foydadan xoli emas edi [28]. Shu maqsadda Xorazmshoh hijriy 535 yilning shavvol oyida (1141 yil may) sultonga tobelik va sadoqat izhor etib quyidagi ahdonmani yo'llaydi:

"Haq taolo ayturki: "Ahsga vafo qilinglar. Zero, ahdu-paymon sizdan (qiyomat kuni) so'raladigan ishdir" va yana "Allohga ahdu-paymon bergan vaqtlariningizda ahdingizga sodiq

qoling! Allohn ni qilib ichgan qasamlaringizni buzmang! Men, Muhammad o'g'li Otsiz ahdu-paymonimni bajarishda Allohdan madad so'rayman va uning marhamatiga umidvorman. Men Alloh oldida aytamanki, va'dalarimga sodiq qolaman va islom sultoniga xizmat qilaman. Alloh to'g'ri yo'lda yurgan insonlarni mukofotlaydi. Men xorazmshoh Muhammadning o'g'li Otsiz Alloh taologa bandadirmen, uning Rasuli Muhammad sollalohun alayhi vassallamga ummatdirman. Toki tirk ekanman, Jahongir Sulton Sanjar ibn Malikshohga tobedurman va ul zotning amr-farmonlarini bajarishga muntazirdurman. Hech qachon sulton davlatiga ziyon yetkazuvchilarga turk va tojikka, do'st yoki dushmanga, ayol yoki erkakka, kofir yoki musulmonga do'st bo'lmayman. Ularga homiylik qilmayman, demak, sulton davlatiga qarshi chiqmayman. Men uning do'stlarining do'sti, dushmanlariga dushmani bo'laman. Mabodo, uning g'animlaridan biri davlatga qarshi biror ish qilsa, tuhmat qilsa yoki yashirin fitna tayyorlasa, bundan xabar topishim bilan bu haqda darhol ra'iy oliyga xabar beraman. Davlatingizga yomonlik qilishni ko'zlagan har qanday odab baloga yo'liqsin va men barcha imkoniyatlарим, jonim va yuragim bilan davlatga qarshi yomonlik qilishni istaganlarning mag'lubiyatini ta'minlashga va bu yo'nالishda kerakli xizmatni bajarishga harakat qilaman. Bu yo'lda hech qanday aldovlarga, turli xil o'yinlarga aldanmayman. Olamlar va odamlarning yaratuvchisi qodir Allohgа sajda, Uning Rasuli (s.a.v)ga salovat aytishdan so'ng, muborak Sultonning buyruqlariga bo'ysunish mening burchimdir. Men bu ahdnomada yozilgan barcha va'dalarimga sodiq qolaman hamda buyuk va

qudratli, rahmdil va kechirimli, beqiyos hamma narsani biluvchi va hamma narsaga qodir, Allohgа qasam ichamanki, men bu maktubda yozilganlarga sodiq qolaman, Alloh nomi bilan qasam ichaman, Alloh nomi bilan qasam ichaman, Alloh nomi bilan qasam ichaman! Yetti osmon va yerning yaratuvchisi Alloh oldida qasam ichamanki, men Sultonga qarshilik qilmayman. Agar men bu yerda yozilganlarga zid ish qilsam, Alloh meni jazolasin va qo'llab-quvvatlashni to'xtatsin. Mabodo Sultonga qarshi biror nojo'ya ish qilib qo'ysam, Makkaga o'n marta piyoda haj qilay, o'n yil ro'za tutay yoxud barcha mol-mulklarimi Makka va Madinadagi beva-bechoralarga bo'lib beray.

Agar va'dalarimdan birini buzzsam Alloh meni jazolasin" [29].

Xulosa. Xorazmshoh Otsizning maktublarida Sulton Sanjarga sodiq qolishga qayta-qayta qasamyod qilishi uning sulton oldidagi ishonchi yo'qola borganligini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda Otsiz ham bergen qasamyodiga zid ravishda sultonning har bir mag'lubiyatida unga qarshi isyon ko'tarib, biron joyga hujum boshlaydi. Yurishlarda omadsizlikka uchragach, Sulton Sanjardan kechirim so'radidi. O'zining kechirimli fe'l-atvori borgilini bilgan va Sulton hamisha uni kechirgan. Bu holatni Saljuqiyilar sultonini nuqtai nazaridan baholaganimizda, uning kechirimli tabiatи xalq oldida obro'sini oshirgan va sulton kechirgan kishini uyat hissi tufayli o'ziga bo'ysundirgan. Boshqa tarafдан esa, Movarounnahrga qaraxitoylar xavf solib turgan edi.

ADABIYOTLAR

- Жалолиддин Отсизнинг унвони Музаффар ад-Дин бўлиб, Султон Санжарнинг буйругига кўра, Абу-л-Музаффар, Алоуддин нисбаларини олади.
- Иbn ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих (Полный свод истории). Избранные отрывки / Ибн ал-Асир; Пер. с араб. яз., прим. и коммент. П.Г.Булгакова; Доп. к пер., прим. и коммент., введ. и указ. Ш.С. Камолиддина; Отв. ред. М.Исхоков; АН РУЗ, Ин-т востоковедения им. Абу Райхана Беруни. – Т.: Узбекистан, 2006. – Б. 233.
- Ahmed Taşağıl, "Mangışlak", DIA, c.XXVII. – Ankara: TDV Yayınları, 2003. – S. 569.
- Абу Усмон Минхужуддин ибн Сирожиддин. Хоразмшохлар сулоласи маликлари (Табоқоти Носирий) / таржимон Шоҳруҳмирзо Исмоилов. – Тошкент: "Sharq ma'rifati nashr-matbaa' uyi" нашриёти, 2021. – Б.16.
- Kafesoglu I. Harezmşahlar Devleti Tarihi (485-618/1092-1221). – Ankara: TTK Basimevi, 1984. – S. 44.
- Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо (Жаҳон фотихи тарихи) / Масъул мухаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Махмудов. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2015. – Б. 276.
- Буниётов З. Ануштегиний-Хоразмшохлар давлати (1097-1231) / Таржимон: Ашраф Аҳмад. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2023. – Б. 12.
- Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо ... – Б. 276.
- Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов 1097-1231. – Москва: Главная редакция восточной литературы издательство «Наука», 1986. – С. 8.
- Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов ... – С. 10.
- Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих ... – С. 240.
- Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо ... – Б. 276.
- Kafesoglu I. Harezmşahlar Deveti Tarihi ... – S. 45-46.
- Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо ... – Б. 276.
- Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо ... – Б. 276-277.
- Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих ... – С. 240.
- Бартольд В.В. Сочинения. Т. III. Работы по древней географии. – М.: Наука, 1965. – С. 479-481.
- Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих ... – С. 240.
- Kafesoglu I. Harezmşahlar Devleti Tarihi (485-618/1092-1221). – Ankara., 1984. – S. 48.
- Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов ... – С. 12.
- Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо ... – Б. 277.
- Köymen M.A. Büyüklü Selçuklu İmparatorluğu Tarihi II. İmparatorluk Devri, c.II, Ankara: TTK Yayımları, 2011. – S 318-327.
- Köymen M.A. Büyüklü Selçuklu İmparatorluğu Tarihi II. İmparatorluk Devri, c.II, Ankara: TTK Yayımları, 2011. – S 318-327.
- Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих ... – С. 241.
- Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо ... – Б. 277; Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих ... – С. 241;
- Буниётов З. Ануштегиний-Хоразмшохлар давлати ... – Б. 17-18.
- Ebû Bekr Muhammed b. Ca'fer en- En-Narşâhî, Târih-i Buhârâ, (Arapçadan çev. Ebû Nasr Ahmed b. Muhammed el-Kubâvî) (Farsçadan çev. Erkan Göksu), TTK Yayınları, Ankara 2013. – S.39; Абу Баkr ибн Жафар Наршахий. Бухоро тарихи. – Тошкент: Камалак, 1995. – Б. 18.
- Köymen M.A. Büyüklü Selçuklu İmparatorluğu Tarihi II. ... – S 247; Kafesoglu I. Harezmşahlar Devleti Tarihi ... – S. 54.
- Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов ... – С. 13.



Шохрух ЧОРИЕВ,

С.н.с. Национального центра археологии АН РУз

E-mail: gundogan92@mail.ru

На основе рецензии PhD по историческим наукам, в.н.с Национального центра археологии АН РУз, Алимджанова Б.

HISTORIOGRAPHY OF THE BANKING ACTIVITIES OF THE TURKESTAN GOVERNOR-GENERALSHIP IN THE 20S AND 40S OF THE 20TH CENTURY

Annotation

The article is devoted to the historiography of the banking activities of the Turkestan Governor-Generalship in the 20-40s of the XX century. The work analyzes key works dedicated to the study of the region's banking system during this period, as well as the changes in the scientific approach to researching this issue at different stages of history. Particular attention is paid to the interpretation of the banking system's influence on the economy, social relations, and the development of financial institutions in Turkestan by various historical schools and scientific directions.

Key words: Turkestan, historiography, banking activities, economy, historical schools.

ИСТОРИОГРАФИЯ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВА 20 – 40-Х ГОДОВ ХХ В

Аннотация

Статья посвящена историографии банковской деятельности Туркестанского генерал-губернаторства в 20–40-е годы XX века. В работе анализируются ключевые работы, посвященные исследованию банковской системы региона в указанный период, а также рассматриваются изменения в научном подходе к исследованию данного вопроса на разных этапах истории. Особое внимание уделяется тому, как различные исторические школы и научные направления трактуют влияние банковской системы на экономику, социальные отношения и развитие финансовых институтов в Туркестане.

Ключевые слова: Туркестан, историография, банковская деятельность, экономика, исторические школы.

XX ASRNING 20 - 40-YILLARIDA TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING BANK FAOLIYATI TARIXSHUNOSLIGI

Annotatsiya

Maqola XX asrning 20-40-yillarida Turkiston general-gubernatorligining bank faoliyati tarixshunoslige bag'ishlangan. Unda mazkur davrda mintaqaning bank tizimini o'rganishga qaratilgan asosiy asarlar tahlil qilingan, shuningdek tarixning turli bosqichlarida ushu masalani tadqiq etishga bo'lgan ilmiy yondashuvdag'i o'zgarishlar ko'rib chiqilgan. Turli tarixiy maktablar va ilmiy yo'naliishlarning Turkistonda bank tizimining iqtisodiyotga, ijtimoiy munosabatlarga va moliyaviy institutlarning rivojlanishiga ko'rsatgan ta'sirini qanday talqin qilishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, tarixshunoslilik, bank faoliyati, iqtisodiyot, tarixiy maktablar.

Введение. История банков и банковского дела в Туркестане фактически не изучена и освещена преимущественно в свете советской концепции «монополистического капитализма». В основном учеными фрагментарно исследовано деятельность Государственного банка, Русско-Азиатского и Волжско-Камского банков. Мы не можем однозначно оценить характеристики деятельности и функционирования имперских банков в Средней Азии, данные советскими и постсоветскими историками. Например, З. Д. Кастельская считала, что «российский капитализм для обеспечения эксплуатации местной экономики создал в Туркестане густую сеть банков» [5]. Полагаем, что банки не эксплуатировали местную экономику, а, наоборот, помогали купечеству увеличить экспорт из региона.

Историографию банковского дела Туркестанского генерал-губернаторства можно разделить на три периода: 20-е – 40-е годы XX века; 40-е - 60-е годы XX века и 80-е – 2020-е годы. Это обусловлено тем, только начиная с 60-х годов XX века, начинается освещение банковской деятельности на основе архивных данных самих центральных банков, а для исследователей архивные данные банков Российской империи были открыты только в 1962 г.

Методы исследования. Основной метод – метод контекстного анализа и метод интерпретации источников. Метод контекстного анализа применяется для изучения источников в контексте исторической ситуации 20–40-х годов XX века. Контекстный анализ позволяет выявить влияние политических и экономических условий того времени на деятельность банков и на восприятие этой

деятельности в научной литературе. Метод интерпретации источников применяется для анализа и интерпретации текстов, научных работ, архивных документов и публикаций по теме.

Анализ и основные результаты. Первые исследователи истории банковской деятельности в русском Туркестане, например, В. Н. Лаврентьев, даже писали, что «среднеазиатские архивы дореволюционных коммерческих банков пропали для исследования» [6]. Книга Владимира Лаврентьева «Капитализм в Туркестане (Буржуазная колонизация Средней Азии)» посвящена изучению процесса экономической колонизации Туркестана в условиях буржуазного империализма.

